



**O'ZBEKISTON MADANIY MEROSI
THE CULTURAL LEGACY OF UZBEKISTAN
КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА**



**O'ZBEKISTON AMALIY SAN'AT
VA HUNARMANDCHILIK TARIXI
DAVLAT MUZEYI TO'PLAMI
THE COLLECTION OF THE STATE MUSEUM
OF APPLIED ART AND HANDICRAFT'S HISTORY
OF UZBEKISTAN**

**СОБРАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ
ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И ИСТОРИИ
РЕМЕСЛЕННОСТВА УЗБЕКИСТАНА**

O'ZBEKISTON MADANIY MEROSI
THE CULTURAL LEGACY OF UZBEKISTAN
КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА





O'ZBEKISTON
MADANIY MEROSI
THE CULTURAL LEGACY OF UZBEKISTAN
КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА

O'ZBEKISTON AMALIY SAN'AT
VA HUNARMANDCHILIK TARIXI
DAVLAT MUZEYI TO'PLAMI
(TOSHKENT)

THE COLLECTION OF THE STATE MUSEUM
OF APPLIED ART AND HANDICRAFT'S HISTORY
OF UZBEKISTAN
(TASHKENT)

СОБРАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ
ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И ИСТОРИИ
РЕМЕСЛЕННОСТВА УЗБЕКИСТАНА
(ТАШКЕНТ)



"O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi to'plami (Toshkent)" kitob-alboni mamlakatimizning taniqli madaniy-ma'rifiy markazlaridan biri – Toshkentdagi "Polovtsov uyi"da joylashgan XIX asr oxiri o'zbek me'morchiligining eng go'zal yodgorligiga bag'ishlangan. Ushbu uy tarixi asli toshkentlik bo'lgan taniqli etnograf va sharqshunos M.S. Andreyev nomi bilan ham bog'liq. O'quvchi nafaqat noyob uy va uning bunyodkorlari, balki bu yerda saqlanayotgan, XIX asr oxiri – XX asrdagi O'zbekiston an'anaviy hamda noan'anaviy amaliy san'atining barcha turlari bilan ham tanishadilar.

Ushbu nashr nafaqat olim va tadqiqotchilar, balki O'zbekistonning boy madaniy merosiga qiziquvchi barcha mahalliy va xorijiy o'quvchilar, yosh avlod vakillari uchun mo'ljallangan. Jahonda o'xshashi yo'q ushbu Loyiha mustaqillik yillarida yaratilgan imkoniyatlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'zbek xalqining madaniy, tarixiy va intellektual merosini asrab-avaylash, boyitish hamda yanada ko'paytirish masalalariga bo'lgan shaxsan e'tibori tufayli amalga oshirilmoqda.

Salihifalarda qo'shimcha vizual ma'lumotlarni olish uchun planshet yoki smartfonda skanerlashga mo'ljallangan QR-kodlar mavjud.

"O'zbekiston madaniy merosi" ko'pjildli turkumi O'zbekistonning noyob tarixiy-madaniy merosining boshqa namunalariga bag'ishlangan kitob-albomlarni chop etishni ham nazarda tutadi.

The Collection of the State Museum of Applied Art and Handicraft's History of Uzbekistan (Tashkent) book-album is devoted to one of the famous cultural and educational centers of our country, located in the most beautiful monument of Uzbek architecture of the late 19th century – the Polovtsov House in Tashkent. The history of this house is connected also with the name of the outstanding ethnographer and orientalist, native of Tashkent M.S. Andreev. The reader will get acquainted not only with the unique house and its founders, but also with the collection kept in it, representing all types of traditional and non-traditional applied art of Uzbekistan of the late 19th–20th centuries.

The publication is intended not only for members of the academic research community, but also for broad local and foreign audiences, as well as the younger generation interested in the rich cultural heritage of Uzbekistan. The project without any analogue in the world has been carried out due to favourable conditions created in the years of Independence and to the personal attention of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to such issues as the careful preservation, enrichment and augmentation of tangible and intangible cultural heritage of the Uzbek people.

The pages are marked with special QR codes for scanning with a tablet or smartphone for additional visual information.

The multi-volume series "The Cultural Legacy of Uzbekistan" provides for publication of other books devoted to the unique masterpieces of the historical and cultural legacy of Uzbekistan.

Книга-альбом «Собрание Государственного музея прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана (Ташкент)» посвящена одному из известных культурно-просветительских центров нашей страны, расположенных в красивейшем памятнике узбекского зодчества конца XIX в. – ташкентском «доме Половцова». История этого дома связана также с именем выдающегося этнографа и востоковеда, уроженца Ташкента М.С. Андреева. Читатель познакомится не только с уникальным домом и его создателями, но и с хранящейся в нем коллекцией, представляющей все виды традиционного и нетрадиционного прикладного искусства Узбекистана конца XIX–XX века.

Издание рассчитано не только на представителей научно-исследовательских кругов, но и на широкую отечественную и зарубежную аудиторию, представителей молодого поколения, интересующихся богатым культурным наследием Узбекистана. Проект, аналогов которому нет в мире, осуществляется благодаря условиям, созданным в годы независимости, и личному вниманию Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к вопросам бережного сохранения, обогащения и приумножения исторического, культурного и интеллектуального наследия узбекского народа.

На страницы книги-альбома нанесены специальные QR-коды для сканирования планшетом или смартфоном для получения дополнительной визуальной информации.

Многотомная серия «Культурное наследие Узбекистана» предусматривает публикацию и других книг-альбомов, посвященных уникальным образцам историко-культурного наследия Узбекистана.

© «Zamon-Press-Info Nashriyot uyi» MChJ, Toshkent, 2024.

© «Silk Road Media» MChJ, Toshkent, 2024.

© «Darakchi inform servis» MChJ, Toshkent, 2024.

© F.F. Abduxoliquov, E.V. Rtveladze, I. Yusupov, S. Zohidova, S. Isroilova (Rahmonova), 2024.

“O‘ZBEKISTON MADANIY MEROSI JAHON TO‘PLAMLARIDA” LOYIHASI HAQIDA

*Kitob – ustoz... Kitob mutolaasining har bir soniyasi
seni donishmandlik xazinasi bilan oshno eta oladi.*

Alisher Navoiy

O‘zbekiston – dunyo tamadduni tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk davlatlar vorisi. Asrlar davomida uning zaminida ajoyib me‘morchilik, san‘at va adabiyotga oid asarlar yaratilgan bo‘lib, ular hanuzgacha butun dunyodagi O‘zbekiston xalqlari madaniyati ixlosmandlarini hayratga solib kelmoqda. Ushbu merosni haqqoniy va har tomonlama o‘rganish nafaqat O‘zbekiston, balki butun jahonning muhim vazifasi hisoblanadi, zotan, mamlakatimiz madaniyati butun insoniyatning boyligidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, bu yo‘nalishda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, 2017-yildan ushbu sohada tubdan o‘zgarishlar boshlandi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zbek xalqining tarixiy, badiiy va ma‘naviy merosini saqlash va yanada ko‘paytirish, yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalarini davlat siyosatiga molik muhim vazifalar qatoriga qo‘ydi. Tashqi siyosatda ham o‘zgarishlar ro‘y berdi – O‘zbekiston jahonga yuz tutdi, ijtimoiy sohalar, turizm yo‘nalishida islohotlar amalga oshirildi. Ijtimoiy hayotning har tomonlama yangilanishi fuqarolik jamiyatini faollashtirdi. Pirovardida mamlakatimizda yangi, ajoyib voqelik – “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” multimedia loyihasi dunyoga keldi. Davlat, jamoat va xalqaro tashkilotlar, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirkorlik tuzilmalari uni qo‘llab-quvvatladilar.

Loyiha zahirida ushbu qadimiy o‘lkada yaratilgan, ammo ba‘zi sabablarga ko‘ra xorijda saqlanayotgan O‘zbekiston madaniy merosi durdonalarini kataloglashtirish g‘oyasi yotibdi. Bu kabi vazifani hali dunyoning biron-bir mamlakati o‘z oldiga qo‘ymagan edi. To‘plangan materiallar suratlar bilan boyitilgan kitob-albomlar shaklida nashr etilmoqda. Loyiha faoliyatining yana bir yo‘nalishi o‘tmishda zaminimizda yaratilgan, biroq bugungi kunda xorij kutubxonalarida saqlanayotgan nodir va noyob qo‘lyozmalar faksimile nusxalarining chop etilishi bo‘ldi. Noshirlik dasturidan tashqari, filmlar va teleko‘rsatuvlar yaratilyapti, tadqiqot ishlarining yangi yo‘nalishlari ishlab chiqilib, amalga tatbiq etilyapti. “O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar” turkumidagi kitoblarda o‘z aksini topgan epigrafik yodgorliklardagi yozuvlarning o‘qilishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, “Fan va madaniyat olimlar asarlarida” yo‘nalishi doirasida olimlarning noyob asarlar sirasiga kirgan kitoblarining qayta nashr etilishi va boshqalar shu jumladandir.

Loyihani yangi O‘zbekiston fuqarolik jamiyatining tashrif qog‘ozi deb atash mumkin. U jamoat, davlat va xalqaro tashkilotlar, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirkorlik tuzilmalari, OAV sa‘y-harakatlarining birlashuvi ma‘rifat va ta‘lim sohalaridagi misli ko‘rilmagan natijalarga erishish imkonini berishi namunasidir.

Rejalarimizni amalga oshirish yo‘lida bizni O‘zbekiston madaniy merosini tadqiq etish bilan shug‘ullanib kelayotgan turli mamlakatlar olimlari qo‘llab-quvvatlashmasa, olg‘a harakatlana olmasdik. Loyiha ishiga jalb qilingach, ular olimlar sa‘y-harakatlarini birlashtiruvchi jamiyat yaratish g‘oyasi bilan chiqdilar. Ushbu g‘oya ilk bor Samarqandda, Registon maydonida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston madaniy merosi – xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi muloqotga yo‘l” I Xalqaro ilmiy-madaniy kongressida (2017-yil may) ilgari surildi. Shu yildan boshlab ishni muvofiqlashtirish, faoliyatning yangi yo‘nalishlarini kelishib olish va ishlab chiqishga imkon yaratuvchi xalqaro kongresslar va media iventlarni o‘tkazish “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” loyihasining yana bir tashrif qog‘oziga aylandi. 2018-yilda Sankt-Peterburgda bo‘lib o‘tgan II Xalqaro

kongress doirasida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati (WOSCU) tashkil etilishi to'g'risida rasman e'lon qilindi. Tarix bir mamlakat merosini o'rganish uchun butun dunyo olimlari jamlangan bunday keng ko'lamlı voqelikni hali bilmaydi. Butunjahon jamiyati 2019-yilning avgust oyida Parij shahrida rasman ro'yxatdan o'tkazildi.

"O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasi va WOSCUning dastlabki natijalari dunyo ilmiy jamoatchiligining mamlakatimizga bo'lgan katta qiziqishini namoyish etdi. Ta'kidlash joizki, olimlar faoliyati YUNESKO va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdan har tomonlama madad oldi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Ma'rifat va ta'limga qaratilgan loyihalar ko'lami juda katta. Ularning amalga oshirilishi biz uchun nafaqat sharaf, balki O'zbekiston kelajagini belgilovchi asosiy yo'nalishdir. Darhaqiqat, ma'rifat va ta'lim tinchlik va yaratuvchilikka olib boradi".

Mazkur kongressda WOSCU a'zolari O'zbekiston rahbariga Loyiha doirasida tayyorlangan kitob-albomlarni respublika maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quv qo'llanma sifatida foydalanish maqsadida chop etish, shuningdek, ularni mamlakatimiz va dunyo kutubxonalariga taqdim etish haqidagi taklifni bildirishdi. Taklif oliy darajada ma'qullandi, shu munosabat bilan "O'zbekiston madaniy merosi" ko'p jildli turkumi nashr qilinib, belgilangan muassasalarga bepul tarqatilmoqda.

WOSCU olimlarining faol ish jarayonlari butun dunyoni qamrab olgan COVID-19 pandemiyasi davrida ham davom etdi. 2020-yilda Butunjahon jamiyatining IV Xalqaro kongressini biz onlayn tarzda o'tkazdik. Hatto shunday sharoitlarda ham olimlar "O'zbekiston madaniy merosi" turkumining yangi jildlarida o'z ifodasini topgan hamkorlikdagi faoliyatlarining salmoqli natijalarini taqdim etishga muvaffaq bo'ldilar.

Faoliyatining besh yilligi tantanasini Loyiha va WOSCU jamoasi yangi muvaffaqiyatlar bilan kutib oldi: turkum doirasida nashr etilgan kitob-albomlar soni 50 taga yetdi. Ular Butunjahon jamiyatining 2021-yil 13-14-sentyabr kunlari o'tkazilgan bir qator ilmiy anjumanlarni hamda Toshkent, Xiva va Nukus shaharlarini qamrab olgan "O'zbekiston madaniy merosi - yangi Renessans poydevori" V Xalqaro kongressida taqdim qilindi. Kitob-albomlardan tashqari, loyiha ilk bor sovg'abop nashrlar - "Rishton kulolchiligi" eksklyuziv albomi, "O'zbekiston san'ati durdonalari" to'rtjildligi, "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" turkumiga kiritilgan, Xiva va Boburiylar davridagi Hindiston yodgorliklariga bag'ishlangan yangi jildlarni tayyorladi. So'nggi qayd etilgan, hindistonlik hamkasblar yordamida tayyorlangan jild O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan, lekin umumiy tarixiy voqealar sabab yurtimiz bilan bog'liqligi bo'lgan me'moriy yodgorliklarni ham loyihaning ilmiy qiziqishlari doirasiga jalb qilishga qaratilgan yangi muvaffaqiyatli qadam bo'ldi.

Butunjahon jamiyati olimlari kongress yakunida O'zbekistonda madaniy, ilmiy va ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yuqori baholagan holda, allaqachon shakllanib ulgurgan an'anaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat bilan chiqishdi. Ular mustaqillikning 30 yilligini nishonlagan mamlakatimizda milliy madaniyatni o'rganish va saqlash sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarni bundan keyin ham faol qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirishga yo'naltirilgan mazkur Loyihaga ko'rsatayotgan yuksak e'tibori, qo'llab-quvvatlashi uchun samimiy minnatdorlik bildirdilar. Loyiha uzoq yillarga mo'ljallangan, negaki uning mavzulari cheksiz.

WOSCUning 2022-yil 22-24-sentyabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan VI Xalqaro kongressida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo'shni mamlakatlar bilan madaniy aloqalari masalasi birinchi o'ringa qo'yildi. Shu munosabat bilan "Xalqlarni birlashtiruvchi meros: Markaziy Osiyo va Ozarbayjon" mavzusidagi davra suhbatı o'tkazildi. Unda ushbu mamlakatlardagi kelib chiqishi O'zbekistonga oid yodgorlik-

larga bag‘ishlangan jildlarni nashrga tayyorlash haqida qarori qabul qilindi. Bu qarorning dastlabki natijalari amalga oshdi – Ozarbayjon, Qozog‘iston va Qirg‘iziston muzeylarida saqlanayotgan, O‘zbekistonga doir osori atiqalarga bag‘ishlangan jildlar tayyorlandi. Bundan tashqari, dunyoning 35 mamlakatidan 350 dan ortiq odam ishtirok etgan kongressda “O‘zbekiston madaniy merosi” turkumidagi yangi o‘nta jildning dastlabki namuna nusxalari (51–60-jildlar), sovg‘a albomlar, As-So‘fiyning “Kitob suvar al-kavokib” (“Harakatsiz yulduzlar kitobi”) nodir qo‘lyozmasi faksimil nashri va ko‘plab boshqa nashrlar taqdimoti o‘tkazildi. Yuqoridagi qo‘lyozma 1430–1440-yillarda, Mirzo Ulug‘bekning mashhur Rasadxonasi qurilayotgan paytda, uning shaxsiy kutubxonasi uchun tayyorlangan.

Nihoyat, 2023-yilning 5–8 noyabr kunlari Samarqand shahrida WOSCUning VII Xalqaro kongressi o‘tkazilib, unda butun jamoaning yangi muvaffaqiyatlari, kelajakdagi rejaları bilan tanishtirildi. Kongressda Ozarbayjon, Rossiya, Tatariston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Hindiston muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan O‘zbekistonga oid osori atiqalarga bag‘ishlangan 61–70-jildlar taqdim etildi. Gretsiya, Turkmaniston, Germaniya, Fransiya, Misr, Eron, Avstriya va Koreya kabi mamlakatlar muassasalari bilan olib borilayotgan yangi ish jarayonlari haqida ma‘lum qilindi.

O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati O‘zbekiston Respublikasi hukumatiga Loyihani amalga oshirishda ko‘rsatayotgan yordami uchun chuqur minnatdorlik bildiradi. Bunday ko‘lamdagi ishlar bosh homiy, loyihaning ilmiy-tadqiqot faoliyati boshida turgan va muvaffaqiyatini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynagan ERIELL Group va Enter Engineering o‘zbek kompaniyalarining ishtirokisiz amalga oshmagan bo‘lardi. Ular dunyoning o‘nlab mamlakatlarida 50 dan ortiq madaniy tadbirlarni o‘tkazish, “O‘zbekiston madaniy merosi” turkumidagi kitob-albomlarni, o‘rta asrlarning bebaho nodir qo‘lyozmalarining noyob faksimil nusxalarini nashr etish va boshqa qator amaliy ishlarni qo‘llab-quvvatladilar.



Mamlakat rahbariyati tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam Loyihaning samarali faoliyati garovidir.

Nashr O‘zbekiston Respublikasi hukumati moliyaviy ko‘magida chop etilmoqda va respublikadagi umumta‘lim maktablari kutubxonalariga topshiriladi.

B.Sh. Fozilov,

*O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash
va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati
raisining o‘rinbosari,
vasiylik kengashi raisi*

F.F. Abduxoliqov,

*O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish,
saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi raisi, san‘atshunoslik fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston
Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist*





Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Yangi tahdidlar, jumladan, "ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir.

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**



"O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasi dunyoning 40 ta mamlakatidan 400 ga yaqin olimlar, 30 dan ortiq davlatlar kolleksiyalari, 50 dan ortiq hujjatli filmlar, 100 dan ortiq taqdimotlar, davra suhbatlari va media-tadbirlar, 20 dan ortiq noyob loyihalarni qamrab olgan

The project Cultural Legacy of Uzbekistan in the World Collections has involved about 400 scholars from 40 countries, covered collections from more than 30 countries, produced more than 50 documentaries, organized more than 100 presentations, round tables and media events and completed more than 20 unique projects

Проект «Культурное наследие Узбекистана в собраниях мира» охватывает около 400 учёных из 40 стран, коллекции более 30 стран, более 50 документальных фильмов, более 100 презентаций, круглых столов и медиамероприятий, более 20 уникальных проектов



ABOUT THE CULTURAL LEGACY OF UZBEKISTAN IN THE WORLD COLLECTIONS PROJECT

The book is a teacher ...

Every moment it gives you the revelation of wisdom.

'Ali Shir Nawa'i

Uzbekistan is the successor of the great states that have written bright pages in the history of world civilization. Over the centuries, amazing works of architecture, art and literature have been created in its land, which still delight devotees of the culture of the peoples of Uzbekistan all over the world. An objective and comprehensive study of this heritage is an urgent task not only for Uzbekistan but also for the whole world since the culture of our country is the heritage of all mankind.

A lot has been done in this area since the Republic of Uzbekistan gained independence. At the same time, fundamental changes began in this area since 2017. The President of the country, Shavkat Mirziyoyev has raised the issues of careful preservation and enhancement of the historical, artistic and intellectual legacy of the Uzbek people, education of the younger generation on the basis of universal and national values to the rank of state policy.

Changes have also taken place in foreign policy; Uzbekistan has opened up to the world in the humanitarian sphere and tourism. Renewal of all aspects of social life has activated civil society.

As a result, a new, striking phenomenon has emerged in our country – the Cultural Legacy of Uzbekistan in the World Collections multimedia project. It is supported by the state, public and international organizations, socially responsible business enterprises.

The Project is based on the idea of cataloging the masterpieces of the heritage of Uzbekistan now kept abroad due to various circumstances. No other country has ever set such a task. The collected materials are published in the form of richly illustrated volumes. Another area of activity is the publication of facsimiles of unique and rare manuscripts created in the past in our land but now kept in foreign libraries. In addition to the publishing program, films and television programs are shot and new areas of research are developed and implemented. E.g., it is worth mentioning the work on the deciphering of epigraphic monuments published in the Architectural Epigraphy of Uzbekistan series of books, the reprint of books by scholars that have become a bibliographic rarity within the area of Science and Culture in the Works of Scholars, and much more.

It is quite possible to name the Project a visiting card of civil society of New Uzbekistan, an example of how the consolidation of the forces of public, state and international organizations, socially responsible business enterprises, and the media can achieve unprecedented results in the field of enlightenment and education.

Realizing our plans, we would not have been able to move forward without the support of scholars studying the cultural legacy of Uzbekistan from different countries. Involved in the activities of the Project, they came up with an initiative to establish a society that would carry consolidating functions. For the first time, this idea took place in Samarkand, in Registan Square, during the First International Congress "The Cultural Legacy of Uzbekistan: the Way to Dialogue between Peoples and Countries" (May 2017). Starting that year, the holding of international congresses and media events allowing coordinating, checking and developing new areas of activity has become another visiting card of the Cultural Legacy of Uzbekistan in the World Collections.

In 2018, at the Second International Congress held in St. Petersburg, the establishment of the World Society for the Study, Preservation and Popularization of the Cultural Legacy of Uzbekistan (WOSCU) was officially announced. World practice has not yet known such a large-scale phenomenon when scholars from all over the world united to study the heritage of one country. In August 2019, the World Society was officially registered in Paris.

The first results of the Cultural Legacy of Uzbekistan in the World Collections project and WOSCU demonstrated the great interest of the world scientific community in our country. It should be emphasized that scholars' activities were fully supported by the UNESCO and the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev. The head of state emphasized, "The scale of projects aimed at enlightenment and education planned for implementation is enormous. Their implementation is not only a matter of honor for us but also the main vector that determines the future of Uzbekistan. After all, it is enlightenment and education that lead to peace and creation."

At this congress, the WOSCU members addressed the head of Uzbekistan with a proposal to publish and transfer books prepared within the framework of the Project as teaching aids for schools and universities of the republic and to present them to the libraries of our country and the world. The proposal was approved at the highest level and the Cultural Legacy of Uzbekistan in the World Collections multivolume series was published and distributed to these institutions free of charge.

The active work of the WOSCU scholars continued even during the COVID-19 pandemic that swept the whole world. In 2020, we held the Fourth International Congress of the World Society online. However, even in such conditions, scholars managed to present serious results of joint work in the new volumes of the Cultural Legacy of Uzbekistan series.

The Project and the WOSCU team approached its fifth anniversary with new achievements: a series of published books-albums numbered 50 volumes. They were presented at the 5th International Congress of the World Society "The Cultural Legacy of Uzbekistan: the Foundation of a New Renaissance" held on September 13-14, 2021 as part of the Week of the Cultural Legacy of Uzbekistan which included several scientific forums and covered cities such as Tashkent, Khiva and Nukus. In addition to books, the Project for the first time prepared gift editions such as an exclusive illustrated volume Ceramics of Rishtan, four-volume Masterpieces of Uzbekistan Art, new volumes of the Architectural Epigraphy of Uzbekistan series devoted to the monuments of Khiva and India of the Baburid era. The latter volume participated by Indian colleagues became a real breakthrough of the project aimed at involving architectural monuments outside Uzbekistan but related to our country by events of common history into the range of scientific interests.

Highly appreciating the conditions made in Uzbekistan for the implementation of cultural, scientific and educational programs, the scholars of the World Society appealed to the President of the Republic of Uzbekistan at the end of the congress according to the already established good tradition. They have confirmed that they are ready to continue to actively support systemic reforms in the field of studying and preserving the national culture, carried out in the country which celebrated the 30th anniversary of independence and sincerely thanked the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev for personal attention and support of this Project aimed at preserving, studying and popularizing the cultural legacy of Uzbekistan. The project is designed for many years since its topics are inexhaustible.

The Sixth International Congress of the WOSCU, held on September 22-24, 2022 in Samarkand, put the issues of cultural ties between Uzbekistan and neighboring states of the Central Asian region at the





*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev va YUNESKO bosh
direktori Odri Azulning tarixiy uchrashuvi.
2019-yil*

*Historic meeting between the President of
the Republic of Uzbekistan
Shavkat Mirziyoyev and the Director General
of UNESCO Audrey Azoulay.
2019*

*Историческая встреча Президента
Республики Узбекистан
Шавката Мирзиёева и Генерального
директора ЮНЕСКО Одри Азуле.
2019 год*



*Madaniy meros haftaligi
"O'zbekiston – buyuk
yo'llar va sivilizatsiyalar
chorrahasi: imperiyalar, dinlar,
madaniyatlar".
Toshkent, 2018-yil*

*Cultural Heritage Week
"Uzbekistan as an Intersection
of Roads and Civilizations:
Empires, Religions, Cultures."
Tashkent, 2018*

*Неделя культурного
наследия «Узбекистан –
перекресток великих дорог
и цивилизаций: империи,
религии, культуры».
Ташкент, 2018 год*



Butunjahon jamiyatining "O'zbekiston madaniy merosi – Yangi Renessans poydevori" V Kongressi ishtirokchilari. Toshkent, 2021-yil

Participants in the 5th Congress of the World Society "The Cultural Legacy of Uzbekistan – the Foundation of a New Renaissance". Tashkent, 2021

Участники V Конгресса Всемирного общества «Культурное наследие Узбекистана – фундамент нового Ренессанса». Ташкент, 2021 год



"O'zbekiston – sivilizatsiyalar chorrahasi" xalqaro arxeologik forumi. Termiz, 2019-yil

International Archaeological Forum "Uzbekistan – the crossroads of civilizations". Termez, 2019

Международный археологический форум «Узбекистан - перекресток цивилизаций». Термез, 2019 год



*Madaniy meros haftaligi
"O'zbekiston – buyuk
yo'llar va sivilizatsiyalar
chorrahasi: imperiyalar, dinlar,
madaniyatlar".
Toshkent, 2018-yil*

*Cultural Heritage Week
"Uzbekistan as an Intersection
of Roads and Civilizations:
Empires, Religions, Cultures."
Tashkent, 2018*

*Неделя культурного
наследия «Узбекистан –
перекресток великих дорог
и цивилизаций: империи,
религии, культуры».
Ташкент, 2018 год*



Butunjahon jamiyatining "O'zbekiston madaniy merosi — Yangi Renessans poydevori" V Kongressi ishtirokchilari. Toshkent, 2021-yil

Participants in the 5th Congress of the World Society "The Cultural Legacy of Uzbekistan — the Foundation of a New Renaissance". Tashkent, 2021

Участники V Конгресса Всемирного общества «Культурное наследие Узбекистана — фундамент нового Ренессанса». Ташкент, 2021 год



"O'zbekiston — sivilizatsiyalar chorrahasi" xalqaro arxeologik forumi. Termiz, 2019-yil

International Archaeological Forum "Uzbekistan — the crossroads of civilizations". Termez, 2019

Международный археологический форум «Узбекистан - перекресток цивилизаций». Термез, 2019 год

О ПРОЕКТЕ «КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА В СОБРАНИЯХ МИРА»

Книга – учитель...

Каждый миг дарит она тебе откровения мудрости.

Алишер Навои

Узбекистан – преемник великих государств, вписавших яркие страницы в историю мировой цивилизации. На протяжении веков на его земле создавались удивительные произведения архитектуры, искусства и литературы, которые и поныне восхищают поклонников этой культуры во всем мире. Объективное и всестороннее изучение богатого наследия является актуальной задачей не только для Узбекистана, но и для всего мира, так как культура нашей страны – достояние всего человечества.

С обретением Республикой Узбекистан независимости в этом направлении сделано немало. Вместе с тем с 2017 года эту сферу затронули коренные изменения. Президент страны Шавкат Мирзиёев возвел в ранг государственной политики вопросы бережного сохранения и приумножения исторического, художественного и интеллектуального наследия узбекского народа, воспитание подрастающего поколения на основе общечеловеческих и национальных ценностей. Изменения произошли и во внешней политике – Узбекистан открылся миру в гуманитарной сфере, туризме. Обновление всех сторон социальной жизни активизировало гражданское общество. Как результат, в нашей стране возникло новое яркое явление – мультимедийный проект «Культурное наследие Узбекистана в собраниях мира». Его поддержали государственные, общественные и международные организации, социально ответственный бизнес.

В основе Проекта лежит идея каталогизации шедевров наследия Узбекистана, в силу различных обстоятельств, хранящихся ныне за рубежом. Подобной задачи еще не ставила перед собой ни одна страна. Собранные материалы публикуются в виде богато иллюстрированных книг-альбомов. Еще одно направление деятельности – издание факсимиле уникальных и редких рукописей, созданных в прошлом на нашей земле, но ныне хранящихся в зарубежных библиотеках. Помимо издательской программы, снимаются фильмы и телепередачи, разрабатываются и реализуются новые направления исследовательской работы. Так, следует упомянуть работу по расшифровке эпиграфических памятников, реализованную в серии книг «Архитектурная эпиграфика Узбекистана», переиздание книг ученых, ставших библиографической редкостью, в рамках направления «Наука и культура в трудах ученых» и многое другое.

Проект можно назвать визитной карточкой нового Узбекистана, примером консолидации сил общественных, государственных и международных организаций, социально ответственного бизнеса, СМИ, позволяющим добиться беспрецедентных результатов в области просвещения и образования.

Реализуя наши планы, мы не смогли бы продвинуться вперед без поддержки ученых разных стран, занимающихся исследованием культурного наследия Узбекистана. Вовлеченные в работу Проекта, они выступили с инициативой создания общества, которое несло бы консолидирующие функции. Впервые эта идея прозвучала в Самарканде, на площади Регистан, в ходе I Международного конгресса «Культурное наследие Узбекистана – путь к диалогу между народами и странами» (май 2017 года). С этого года проведение международных конгрессов и медиаивентов, позволяющих координировать работу, разрабатывать новые направления деятельности, стало еще одной особенностью проекта «Культурное наследие Узбекистана». В 2018 году на II Международном конгрессе, проведенном

в Санкт-Петербурге, о создании Всемирного общества по изучению, сохранению и популяризации культурного наследия Узбекистана (WOSCU) было объявлено официально. Мировая практика еще не знала такого масштабного явления, когда ученые всего мира объединились для изучения наследия одной страны. В августе 2019 года Всемирное общество получило официальную регистрацию в Париже.

Первые результаты работы проекта «Культурное наследие Узбекистана в собраниях мира» и WOSCU продемонстрировали огромный интерес мирового научного сообщества к нашей стране. Подчеркнем, что деятельность ученых нашла всемерную поддержку со стороны ЮНЕСКО и Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева. Глава государства отмечает: «Масштаб намеченных к реализации проектов, направленных на просвещение и образование, огромен. Их выполнение является для нас не только делом чести, но и главным вектором, определяющим будущее Узбекистана. Ведь именно просвещение и образование ведут к миру и созиданию».


На этом конгрессе члены WOSCU обратились к Президенту Узбекистана с предложением отпечатать и передать книги-альбомы, подготовленные в рамках Проекта, в качестве учебных пособий для школ и вузов республики, предоставить их библиотекам нашей страны и мира. Предложение было одобрено на самом высоком уровне, в связи с чем многотомная серия «Культурное наследие Узбекистана» издана и распространяется по указанным учреждениям безвозмездно.

Активная работа ученых WOSCU продолжилась даже в период пандемии COVID-19, захлестнувшей весь мир. В 2020 году IV Международный конгресс Всемирного общества мы провели в онлайн-режиме. Однако и в этих условиях ученым удалось продемонстрировать серьезные результаты совместной работы, представленные в новых томах серии «Культурное наследие Узбекистана».

К своему пятилетнему юбилею Проект и коллектив WOSCU подошли с новыми достижениями: серия изданных книг-альбомов стала насчитывать 50 томов. Они были презентованы на V Международном конгрессе «Культурное наследие Узбекистана – фундамент нового Ренессанса», который прошел 13–14 сентября 2021 года в рамках Недели культурного наследия Узбекистана, включившей несколько научных форумов и охватившей такие города, как Ташкент, Хива и Нукус. Помимо книг-альбомов, проект впервые подготовил подарочные издания – эксклюзивный альбом «Керамика Риштана», четырехтомный альбом «Шедевры искусства Узбекистана», новые тома серии «Архитектурная эпиграфика Узбекистана», посвященные памятникам Хивы и Индии эпохи Бабуридов. Последний том, создание которого стало возможным при содействии индийских коллег, стал подлинным прорывом, направленным на вовлечение в круг научных интересов проекта памятников архитектуры, находящихся за пределами Узбекистана, но связанных с нашей страной событиями общей истории.

Высоко оценивая созданные в Узбекистане условия для реализации культурных, научных и просветительских программ, ученые Всемирного общества по завершении конгресса по уже сложившейся доброй традиции обратились к Президенту Республики Узбекистан. Они подтвердили, что готовы и дальше активно поддерживать системные реформы в сфере изучения и сохранения национальной культуры, проводимые в стране, отметившей 30-летие независимости, и поблагодарили Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева за личное внимание и поддержку настоящего Проекта, направленного на сохранение, изучение и популяризацию культурного наследия Узбекистана. Проект рассчитан на многие годы, поскольку поднимаемые им темы неисчерпаемы.

VI Международный конгресс WOSCU, состоявшийся 22–24 сентября 2022 года в Самарканде, во главу угла поставил вопросы культурных связей Узбекистана с соседними государствами Централь-



но-Азиатского региона. В этой связи был проведен круглый стол «Наследие, объединяющее народы: Центральная Азия и Азербайджан», на котором принято решение подготовить тома, посвященные памятникам узбекистанского происхождения в этих странах. Первые результаты этого решения уже достигнуты – подготовлены тома, посвященные артефактам с территории современного Узбекистана, хранящимся в музеях Азербайджана, Казахстана и Кыргызстана. На конгрессе, в котором приняли участие более 350 человек из 35 стран мира, были презентованы пилотные версии новых десяти томов серии «Культурное наследие Узбекистана» (тома 51–60), новые подарочные альбомы, факсимиле уникальной рукописи «Китаб сувар ал-кавакиб» («Книга неподвижных звезд») Ал-Суфи, созданной для личной библиотеки Улугбека около 1430–1440 гг. в Самарканде для его знаменитой обсерватории.

Наконец, 5–8 ноября 2023 года в Самарканде состоялся VII Международный конгресс WOSCU, представивший новые достижения работы коллектива, планы на будущее. На конгрессе были представлены итоги работы с 61 по 70-е тома, посвященным узбекским артефактам из музеев и библиотек Азербайджана, России, Татарстана, Казахстана, Кыргызстана, Турции, Индии. Была анонсирована работа с новыми институциями таких стран, как Греция, Туркменистан, Германия, Франция, Египет, Иран, Австрия, Республика Корея.



Всемирное общество по изучению, сохранению и популяризации культурного наследия Узбекистана выражает глубокую благодарность правительству Республики Узбекистан за всемерную поддержку и содействие в реализации Проекта. Также, такая масштабная работа была бы невозможна без главных спонсоров проекта – узбекских компаний ERIELL Group и Enter Engineering, стоявших у истоков исследовательской деятельности Проекта и сыгравших решающую роль в обеспечении успешной работы. Они поддержали проведение более 50 культурных мероприятий в десятках стран мира, издание серии книг-альбомов «Культурное наследие Узбекистана», уникальных факсимиле знаменитых средневековых рукописей и многое другое.

Залог плодотворной работы Проекта – поддержка, оказываемая руководством страны.

Тираж данного издания профинансирован правительством Республики Узбекистан и передается библиотекам общеобразовательных школ страны на безвозмездной основе.

Б.Ш. Фазылов,

*председатель попечительского совета,
заместитель председателя Всемирного общества
по изучению, сохранению и популяризации
культурного наследия Узбекистана*

Ф.Ф. Абдухаликов,

*председатель правления Всемирного общества
по изучению, сохранению и популяризации
культурного наследия Узбекистана, доктор
философии по искусствоведению (PhD),
заслуженный журналист Республики Узбекистан*



*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoda
islom madaniyati va tarixini taqdim
etuvchi yirik loyiha — Islom sivilizatsiyasi
markazi qurilishi bilan tanishish uchun
tashrif buyurdi.
2021-yil 29-yanvar*

*President of the Republic of
Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev
visiting the Center of Islamic
Civilization, a large-scale project
presenting the culture and history of Islam
in Central Asia.
January 29, 2021*

*Президент Республики Узбекистан
Шавкат Мирзиёев посетил
Центр исламской цивилизации —
масштабный проект,
представляющий культуру и историю
ислама в Центральной Азии.
29 января 2021 года*



*"Moddiy va nomoddiy merosni asrash:
dolzarb muammolar va ularni
hal qilish strategiyasi" xalqaro
konferensiyasi.
Samarqand, 2019-yil*

*The International Conference "The
Preservation of Tangible and Intangible
Cultural Heritage: current problems and
strategies for their solution".
Samarkand, 2019*

*Международная конференция
«Сохранение материального
и нематериального наследия:
актуальные проблемы и стратегии их
решения».
Самарканд, 2019 год*



V Xalqaro kongress doirasida xalqaro tadqiqotchilar va ilmiy tashkilotlarga "O'zbekiston madaniy merosi" turkumidagi kitob-albomlarni bepul olish uchun sertifikatlar topshirildi. Toshkent, 2021-y.

Within the framework of the Fifth International Congress, foreign researchers and scientific organizations received certificates for free receipt of books-albums of the Cultural Legacy of Uzbekistan in the World Collections series. Tashkent, 2021.

В рамках V Международного конгресса зарубежным исследователям и научным организациям были вручены сертификаты на безвозмездное получение книг-альбомов серии «Культурное наследие Узбекистана». Ташкент, 2021 г.



Butunjahon jamiyatining "O'zbekiston madaniy merosi – Yangi Renessans asosi" VI Xalqaro Kongressi. Samarqand, 2022-yil

6th International Congress of the World Society "Cultural Legacy of Uzbekistan – the Foundation of a New Renaissance". Samarkand, 2022

VI Международный Конгресс Всемирного общества «Культурное наследие Узбекистана – основа нового Ренессанса». Самарканд, 2022 год

Butunjahon jamiyatining
 "O'zbekiston madaniy
 merosi – Yangi Renessans
 poydevori" VI Xalqaro
 kongressi.
 Samarqand, 2022-yil

6th International
 Congress of the World
 Society "Cultural Legacy
 of Uzbekistan – the
 Foundation of a New
 Renaissance".
 Samarkand, 2022

VI Международный
 Конгресс Всемирного
 общества «Культурное
 наследие Узбекистана –
 основа нового
 Ренессанса».
 Самарканд, 2022 год







**O'ZBEKISTON AMALIY SAN'AT
VA HUNARMANDCHILIK TARIXI
DAVLAT MUZEYINING TARIXI:
"POLOVSOV UYI" VA UNING
ASOSCHILARI**

FROM THE HISTORY OF THE STATE MUSEUM
OF APPLIED ART AND HANDICRAFT'S HISTORY
OF UZBEKISTAN: THE POLOVTSOV
HOUSE AND ITS FOUNDERS

ИЗ ИСТОРИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ
ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И ИСТОРИИ
РЕМЕСЛЕННОЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА:
«ДОМ ПОЛОВЦОВА» И ЕГО СОЗДАТЕЛИ

O'ZBEKISTON AMALIY SAN'AT VA HUNARMANDCHILIK TARIXI DAVLAT MUZEYINING TARIXI: "POLOVSOV UYI" VA UNING ASOSCHILARI

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi Toshkentning markazida, taniqli o'zbek bastakori Yunus Rajabiy nomi bilan ataladigan mahallaning soya-salqin bir ko'chasida joylashgan. Muzey nafaqat o'zining kolleksiyasi bilan mashhur. U egallab turgan binoning o'zi ham noyob san'at durdonasi, shahardagi eng ajoyib, qadimiy qasrlardan biridir. Har bir toshkentlik bu joyni rus diplomati, sharqshunosi va kolleksioneri "Polovsovning uyi" sifatida biladi. Aleksandr Aleksandrovich Polovsovdan tashqari, taqdiri ushbu bino bilan chambarchas bog'langan yana bir shaxs – asli toshkentlik Mixail Stepanovich Andreyev degan kishi ham bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan, muzey va unda saqlanadigan kolleksiya haqidagi hikoyamizni ushbu uyning o'zi va uni mashhur qilgan shaxslarlarning tarixidan boshlashimiz to'g'ri bo'ladi.

"Polovsov uyi": Toshkent durdonasi

1896-yilda Ichki ishlar vazirligining maxsus topshiriqlari bo'yicha davlat xizmatchisi A.A. Polovsov (1867–1944), O'rta Osiyo va Kavkazda ko'chirish ishlarining holati va muammolarini o'rganish uchun Sankt-Peterburgdan Toshkent shahriga keldi. Taniqli dvoryanlar oilasining vakili sanalgan Polovsov diplomatik xizmatni o'tash bilan bir qatorda arxeologiya va etnografiyaga ham juda qiziqqan, Turkiston arxeologlar to'garagining a'zosi bo'lgan va san'at olamidagi eng mashhur kishilarning ko'pchiligi bilan yaqindan aloqa o'rnatgan.

Turkiston viloyati bilan yaxshi tanish bo'lgan, etnograf V.P. Nalivkinning tavsiyasi bilan Polovsov poliglot, nafaqat o'zbek tilini, balki tojik, arab, qozoq tillarini ham juda yaxshi biladigan Mixail Andreyevni (1873–1948) o'ziga kotib qilib oladi. Tillarni o'rganishga bo'lgan intilish Andreyevning etnografiya, tarix, arxeologiya va san'atni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga sabab bo'ldi. U yangi boshlig'i topshirig'iga ko'ra toshkentlik tadbirkor N.I. Ivanov uyini sotib oladi va uni qayta qurish bilan shug'ullanadi. Qurilish ishlari me'mor A.A. Burmeyster nazorati ostida amalga oshiriladi. M.S. Andreyev o'z navbatida binoning ichki bezatilishi bilan shug'ullanadi va buning uchun o'sha davrning taniqli xalq ustalarini taklif qiladi. Polovsovning mahalliy san'atga bo'lgan ishtiyoqi va Andreyevning bu sohadagi ajoyib qobiliyati bezash uslubini tanlashda muhim ahamiyat kasb etgan – unda milliy me'mo-



Ayvonning shimoliy qismi (asosiy old ko'rinishi). 1981-y.

Northern part of the iwan (main facade). 1981.

Северная часть айвана (главный фасад). 1981 г.

riy bezak sohasidagi eng yaxshi yutuqlardan foydalangan holda ish olib borishga qaror qilingan. Keyinchalik Toshkent shahrining ko'rkiga aylangan muhtasham me'morchilik durdonasining qad ko'tarishi ana shunday boshlangan edi.

Binoni bezatish ishlarida nafaqat Toshkentning, balki Buxoro, Namangan, Qo'qon, O'ratpa kabi shaharlarning eng yaxshi ustalari ham ishtirok etishgan. Ular orasida yog'ochga naqsh tushirish bo'yicha mohir ustalar Olimjon Qosimjonov, Sheralixo'ja Hasanov (Toshkent), Ota Polvonov (Xiva), Umurzoq Ahmedov (Marg'ilon), ganch o'ymakorligi va naqqoshligi bo'yicha usta Vakil, Arslonqul Nazarov, Toshpo'lat Arslonqulov (Toshkent), kulolchilik sohasida usta Kal Abdulla (Rishton) va boshqalar bo'lishgan. Nomlari tilga olingan har bir usta ushbu binoni bezashda o'z izini qoldirgan.

Binoga naqsh berish ishlari usta Olimjon Qosimjonov tomonidan boshqarilgan. Zal va ayvon panellarini bezash ishlari Kal usta laqabli mohir kulol usta Abdulla rahbarligida Rishton hunarmandlari tomonidan bajarilgan. Ilgari uning o'z ustaxonasi bo'lib, u yerda

nafaqat Markaziy Osiyo, balki Qoshg'ar, Xitoy va Eron uchun shogirdlar ham yetishtirib chiqargan. Zalning shimoliy va janubiy devorlari panjara uslubidagi ganch o'ymakorligi bilan ishlangan ikkita taxmon-tokcha bilan ajratilgan. Usta Toshpo'lat Arslonqulov tokchalarga naqsh berish va alohida pannolar o'ymakorligida qatnashgan. Buxorolik naqqosh, usta Shirin Murodov ayvon, janubiy va g'arbiy devorlarni bezatgan.

Hovli-joyning o'zi 150 gektar maydonni egallagan, bu yerdagi markaziy binoning atrofida qo'shimcha uy, otxona, xo'jalik binosi va katta bog' joylashgan. Markaziy bino va qo'shimcha uy o'rtasiga katta hovuz qurilgan. Hovlida shoxlari yoyilib o'sgan eman daraxtlaridan biri bizning davrimizgacha saqlanib qolgan.

Asosiy fasad shimolga qaratilgan. Marmar qoplangan zina pillapoyalari katta bo'lmagan ayvonga olib boradi. Bu yerda mehmonlar qo'shtabaqali eshik orqali keng serhasham zalga – mehmonxonaga kirishadi.

Mehmonxonadan o'sha payt mavjud bo'lgan kutubxona, qabullar xonasi, yotoqxona va vannaxonadan iborat binoga o'tish mumkin edi. Janub tomonda mehmonlar uchun derazalari sharqqa qaratilgan xonalar (vaqtinchalik o'tkaziladigan ko'rgazmalar uchun bino, hozir Muzeyning badiiy fondi joylashgan) qurilgan. Qarama-qarshi – g'arbiy qanotda xizmat xonalari bo'lib, ularning derazalarini yog'och o'ymakorligi uslubida naqshlar bilan bezatilgan ustunlar o'rnatilgan katta peshayvon quyoshdan to'sib turadi.

Ayvonga tutashgan fasadning tashqi bezaklari, mehmonxona hamda unga qo'shilgan yog'och va ganchga o'ymakorlik uslubida ishlov berilgan va naqsh chizilgan koshinli chilimxonaning ichki ko'rinishi milliy uslubda ishlangan devoriy bezaklarning ajoyib namunalari hisoblanadi. Jilo berish holati hamma joyda ham bir xilda emas. Ular orasida shiftlar naqshi juda yaxshi saqlanib qolgan. Ba'zi xonalardagi badiiy bezaklar esa butunlay yo'qolgan.

Mehmonxona devorlari sathiga zeb berishda ko'zga tashlanadigan belgilarni taqsimlash jarayonida ustalar hashamdor uyning ichki qismini bezash uchun odatiy uslublardan kelib chiqib yondashishgan. Devorlarning pastki qismida sopol koshin bilan qoplangan, unchalik baland bo'lmagan panel joylashtirilgan. Tepa qismida shiftning to'siniga o'tish vazifasini o'taydigan enli, ko'p qavatli yog'och karniz o'rnatilgan. Devor o'rtasining aksariyat qismi, hayratlanarli darajada chiroyli qilib bezatilgan pannolar va tokchalarga bo'lingan. Devor sathining barcha qismlari – ganch va yog'ochga gilamnusxa naqsh chizilgan va o'ymakorlik uslubida bezatilgan panel-pannolar, tokchalar va karnizlar bilan qoplangan.

Karnizning har uchta qatlami ham sharafo (ravoqli kosachalar qatorlari) uslubi bilan yaratilgan. Shiftni naqshinkor va o'ymakorlik uslubi bilan bezatilgan to'rtta mustahkam ustun ko'tarib turibdi. Uning markazi va burchaklarida qo'shimcha dekorativ detal sifatida ishlatilgan hovuzaklar joylashgan. Shiftning yuzasi girih deb nomlanuvchi panjara ko'rinishidagi murakkab handasaviy naqsh tushirilgan uzun taxtalar bilan qoplangan. Shiftga yog'och to'sinlardan tashqari naqsh bezaklari qiyom yordamida taxtaning yuzasiga kundal texnikasida ingichka oltin yaproqchalar yopishtirilgan.

Zalning markazida sakkiz qirrali, favvora o'rnatilgan hovuz qurilgan va uning ustiga suv bosimi hosil qiladigan minora o'rnatilgan. Ushbu maydonning janubiy qismida joylashgan kanaldan diametri 100 mm bo'lgan maxsus quvurlar orqali keltirilgan suv avval tindirgichga kelib tushgan, so'ngra suv nasos yordamida binoning me'morchilik uslubi-ga juda mos tarzda qurilgan, suv bosimi hosil qiladigan minoraga ko'tarilgan. Ilgari oltin baliqchalar suzib yurgan, asosiy muhtasham zalda joylashgan hovuzdagi suv ushbu zal ostidagi yerto'lada joylashgan va qo'rg'oshin trubalaridan yasalgan yordamchi suv qabul qilish tizimiga ega bo'lgan chuqur quduqqa qaratib oqizilgan. Hovuz 1948-yilda ko'milgan.

Markaziy zaldagi eshik orqali devorlari ganch o'ymakorligi uslubida naqshlar solingan va zarhallangan turli xil rasmlar bilan bezatilgan chilimxona tomonga chiqiladi. Chilimxona-niing yog'ochdan ishlangan shifti alohida chuqur kessonlarga bo'lingan. Shift markazida o'yiqlar bilan bezatilgan hovuzak bor.

Markaziy zal va chilimxona bezaklarini XIX asrning oxirgi davriga oid O'zbekiston me'morchiligi naqshlarini aks ettiruvchi o'ziga xos qomus deb atash mumkin.


Bu yerda faqat qavariq shakldagi rasmlar bilan bezatilgan bitta xonaning tepa qismi-ni alohida kvadratlarga ajratib turgan taxta to'sinlarni, hovuzaklarni va kessonlarni to'liq qoplagan, yog'ochdan ishlangan shiftini inobatga olmaganda, boshqa birona zaldagi badi-iy bezaklar saqlanib qolmagan.


Hunarmandlarning ishlarini boshqarib turgan M.S. Andreyevning esdaliklarida yo-zilishicha, ustalar qancha urinishmasin ikkita katta o'ymakor eshikni yasash uchun mos keladigan o'lchamdagi quruq taxtani hech qayerdan topa olishmagan. Shundan keyin xo'jandlik kekxa tojik usta oldindan maxsus qayta ishlangan nam holatdagi chinor darax-ti yog'ochidan eshiklar yasab ko'rishni taklif qilgan. Uning ko'rsatmasiga binoan temir tekis vannalar yasalgan va ularda eshiklar uchun mo'ljallangan chinor yog'ochlari tay-yorlangan. Ushbu yog'ochlardan yasalgan o'ymakor eshiklar hanuzgacha biron bir yo-riqsiz saqlanib turibdi. Eshik ustida quyidagicha mazmundagi yozuv yozilgan: "Bizning dunyo xuddi saroyga o'xshaydi: uning ikkita eshigi bor. Ba'zi odamlar birinchi eshikdan kirayotganda, boshqalari orqa eshikdan chiqib ketayotgan bo'ladi". Ikkinchi eshikning yuqorisida shunday yozuv yozilgan: "Bu uyda har kuni turli mamlakatlardan mehmon-lar bo'ladi".

1902-yilda binoning qurilishi to'liq tugatildi, shu jumladan, ichki bezak berish ishlari ham nihoyasiga yetkazildi. 1904-yilda "Samarqand" gazetasida "Toshkentdan xabarlar" rukni ostida bosilgan maqolada Cherevanskiyning keyinchalik N.I. Ivanovning nomiga o'tgan va oxirgi paytda A.A. Polovsovning mulkiga aylangan eski uyini qayta qurish tuga-tilganligi e'lon qilindi.

1937-yilgacha uning ichida bolalar uyi, pedagogika texnikumi, Toshkent temiryo'lchi-larni tayyorlash fabrika-zavod maktabi, ganch o'ymakorligi, misgarlik o'quv markazi va kashtachilik ustaxonasi joylashgandi.

1937-yilda O'zbekiston Xalq xo'jaligi muzeyi tugatilishi bilan uning tarkibidagi Hunar-mandchilik bo'limi doimiy mustaqil ko'rgazmaga aylantirildi va uning ochilish marosimi





o'tkazildi. "Polovsov uyi"ning markaziy zali va unga tutash xona O'zSSR Xalq komissarlari sovetining maxsus qarori bilan Amaliy san'at ko'rgazmasini tashkil etish uchun O'zSSR Promkooperatsiyalar Boshqaruviga o'tkazildi. Shu tariqa 1937-yildan buyon bu uyda Hunarmandchilik muzeyi faoliyat olib boradi.

Bugun O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyiga oliy martabali mehmonlar, diplomatik korpus, xalqaro tashkilotlar vakillari, madaniyat va san'at arboblari, dunyoning turli burchaklaridan kelgan sayyohlar, shuningdek, mamlakatimizning barcha viloyatlari aholisi tashrif buyurmoqda. Ushbu memoriy yodgorlik nafaqat Toshkentning ko'zga ko'ringan madaniyat va sayyohlik markazlaridan biri, balki o'zbek xalqining ma'naviy merosi, desak xato bo'lmaydi.



Ichki ishlar vazirligining alohida topshiriqlar bo'yicha amaldori A.A. Polovsov (1867–1944). Internet manba

Official for special assignments of the Ministry of Internal Affairs A.A. Polovtsov (1867–1944). Internet resource

Чиновник по особым поручениям Министерства внутренних дел А.А. Половцов (1867–1944). Интернет-ресурс








FROM THE HISTORY OF THE STATE MUSEUM OF APPLIED ARTS AND THE HISTORY OF HANDICRAFTS OF UZBEKISTAN: THE POLOVTSOV HOUSE AND ITS FOUNDERS

The State Museum of Applied Art and Handicraft's History of Uzbekistan is located in the very center of Tashkent, on the shady street of the mahalla named after the famous Uzbek composer Yunus Rajabi. The museum is famous not only for its collection. Its building is a unique art object, one of the most beautiful old mansions in the city. Every Tashkent citizen knows it as the Polovtsov house, a Russian diplomat, orientalist and collector. In addition to Alexander Alexandrovich Polovtsov, there was another person whose fate is inextricably linked with this building – a native of Tashkent, Mikhail Stepanovich Andreev. In this regard, the story about the Museum and the collection kept in it must begin with the history of the house itself and the persons who made it famous.

The Polovtsov House: the Pearl of Tashkent

In 1896, an official on special assignments from the Ministry of Internal Affairs A.A. Polovtsov (1867–1944) left St. Petersburg for Tashkent to study the state and problems of the resettlement in Central Asia and the Caucasus. A member of a well-known noble family, Polovtsov was keenly interested in archeology and ethnography in addition to the diplomatic service; he was a member of the Turkestan circle of archaeologists and had a wide circle of acquaintances in the world of art.

On the recommendation of a connoisseur of the Turkestan region, ethnographer V.P. Nalivkin, Polovtsov recruits as a secretary Mikhail Andreev (1873–1948), a polyglot who brilliantly knew not only Uzbek, but also Tajik, Arabic, and Kazakh languages. Ardour for languages led Andreev to the study of ethnography, history, archeology and art. Fulfilling the instructions of his new superiors, he acquired a house from the Tashkent businessman N.I. Ivanov and reconstructed it. Construction work was carried out under the supervision of the architect A.A. Burmeister. M.S. Andreev, in turn, took up interior design and invited eminent folk masters of that time. Polovtsov's passion for local art and Andreev's brilliant knowledge in this field played a key role in choosing a design style; it was decided to embody the best achievements in the field of national architectural decor in it. This was the beginning



*Asosiy zalning janubiy devoridagi
kamin. 1961 y.*

*A fireplace at the south wall
of the main hall. 1961*

*Камин у южной стены главного
зала. 1961 г.*

of the creation of a magnificent masterpiece of architecture that has become an adornment of Tashkent.

No only the best craftsmen of Tashkent took part in the design work but also representatives of Bukhara, Namangan, Kokand, and Ura-Tyube. Among them are Alimjan Kasimjanov, Sherali Khoja Khasanov (Tashkent), usto Adil, usto Hasan (Bukhara), and usto Rauf (Ura-Tyube) – wood painting, Ata Palvanov (Khiva) and Umurzak Akhmedov (Margelan) – wood carving, usto Vakil, Arslankul Nazarov and Tashpulat Arslankulov (Tashkent) – carving and painting on ganch, usto Kal Abdulla (Rishtan) – ceramics and others. Each of these persons left their mark on the decoration of this building.

Usto Alimjan Kasimjanov supervised the painting of the building. Rishtan craftsmen under the guidance of the famous master usto Abdulla, a talented ceramist nicknamed usto Kal', made the mosaic of the panels of the hall and the iwan. In the past, he had his own workshop, where he trained students not only for Central Asia but also for Kashgar, China and Iran. The northern and southern walls of the hall are marked with two tauchi-niches with lattice carvings on ganch – panjara. Usto Tashpulat Arslankulov took part in the ornamentation of the tauchi and individual carved panels. A Bukhara master usto Shirin Muradov designed the iwan, southern and western walls.

The mansion itself occupied an area of 150 hectares, where a wing, stables, outbuildings, and a garden were located around the central building. There was a reservoir between the central building and the outbuilding. In the courtyard, there were oaks with spreading crowns, one of which has survived to this day.

The main facade is oriented to the north. The steps of the marble staircase lead to a small iwan, from which, through a massive double carved door, visitors enter the spacious ceremonial hall – mehmon-khona.

One could get from the mehmon-khona into the premises where the library, the reception room, the bedroom and the bathroom were located at that time. On the south side, there were guest rooms (premises for temporary exhibitions, now the Museum's art fund) with windows facing east. The opposite – western – wing housed service rooms, the windows of which were protected from the sun by a large covered terrace with carved wooden columns.

The exterior of the facade with the adjoined iwan, the interiors of the mehmon-khona and the adjacent hookah room with tiles, carvings and paintings on wood and ganch are magnificent examples of wall decor made in the national style. Conditions of decoration finish are not the same everywhere. The decor of the ceilings is the best preserved. The decoration has been completely lost in some rooms.

Distributing decorative accents on the surface of the walls of the mehmon-khona, the craftsmen proceeded from traditional techniques typical for decorating the interior space of a rich house. In the lower part of the walls, there was a low panel faced with ceramic



*Ganch o'ymakorligi ustasi, O'zSSR
Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi
usta Shirin Murodov va uning shogirdi
Hakim Husniddinov.
10.12.1949-y.*

*A ganch carver, an honorary member
of the Academy of Sciences of the
Uzbek SSR usta Shirin Muradov and
his apprentice Khakim Khusniddinov.
10.12.1949*

*Мастер резьбы по ганчу, почетный
член Академии
наук УзССР усто Ширин Мурадов
и его ученик Хаким Хусниддинов.
10.12.1949 г.*

tiles. At the top, there is a wide multi-tiered wooden cornice being a transition to the ceiling beams. The middle, most part of the wall surface, is divided into many amazingly decorated panels and niches. All parts of the wall surface – panels, niches and cornices are decorated with painting and carving on ganch and wood in a carpet style.

All three tiers of the cornice are decorated with sharafa-stalactites. The ceiling is supported by four slender columns also decorated with paintings and carvings. In the center of the ceiling and in the corners, as an additional decorative detail, there are stalactite depressions – khauzak. The surface of the ceiling is lined with planks forming a grid of a complex geometric pattern – girih. In addition to the planks, it is painted using the kundal technique, in which the pattern is created with thin goldfoil glued to the surface of the tree using honey or treacle.

An octahedral pool with a fountain was arranged in the middle of the hall, for which a water tower was erected on the roof. From a canal located in the southern part of the site, through special pipes with a diameter of 100 mm, water entered the clarifying basin; from the clarifying basin using a pump, water flowed into the water tower, which very successfully fit into the architecture of the building. From the pool located in the main large hall where goldfish swam earlier, water fell into a deep well located in the basement under the large hall, and which had an auxiliary water absorption system made of lead pipes. The pool was destroyed in 1948.

From the central hall, the door leads to the so-called hookah room, the walls of which are no less richly decorated with ganch carvings and paintings with gilding. The wooden ceiling of the hookah room is split into separate caissons. In the center of the ceiling, there is a khauzak decorated with carved stalactites.

The decor of the central hall and the hookah room is a kind of encyclopedia of Uzbek architectural ornament of the late 19th century.

In other rooms, the artistic decoration has not survived except for the wooden ceiling of one of the rooms with relief paintings completely covering wooden beams, khauzaks and caissons dividing the ceiling into separate squares.

According to the memoirs of M.S. Andreev, who supervised the work of the craftsmen, despite the search, they could not find a dry timber of the appropriate size to make two large carved doors. Then an old Tajik craftsman from Khujand suggested making doors from raw plane tree wood, which had been specially processed in advance. On his instructions, they made flat iron baths and prepared plane tree boards for doors. The carved doors made of these boards still stand without a single crack. The inscription above the door is: "Our world is like a palace: it has two doors. People come in through one doors and out through others." The inscription above the second door is: "There are guests from different countries in this house every day."


In 1902, the building was completely rebuilt, including the interior decoration. In 1904, the newspaper "Samarkand" under the heading "Correspondence from


Tashkent” announced the completion of the reconstruction of the old house of Cherevansky, which later belonged to N.I. Ivanov, and, as a result, became the property of A.A. Polovtsov.


Until 1937, its walls housed: an orphanage, a pedagogical college, a factory training school for Tashkent railway workers, a training center for ganch carving and embossing, and an embroidery workshop.

In 1937, after the liquidation of the Museum of the National Economy of Uzbekistan, the Department of Handicrafts became a permanent independent exhibition. The central hall of the Polovtsov House with an adjoining room was transferred by a special resolution of the Council of People’s Commissars of the UzSSR to the Board of the Industrial Cooperations of the UzSSR for organizing the Exhibition of Applied Arts. Thus, since 1937, the house has housed the Museum of Handicrafts.

Today, the State Museum of Applied Arts and the History of Handicrafts of Uzbekistan is visited by high-ranking guests, representatives of diplomatic corps, international organizations, cultural and artistic figures, tourists from around the world, as well as residents of all regions of our country. It is safe to say that this architectural monument is not only one of the outstanding cultural and tourist centers in Tashkent but also the heritage of the Uzbek people.









Ayvonning g'arbiy devori.
1981-y.

The western wall of the iwan.
1981.

Западная стена айвана.
1981 г.

ИЗ ИСТОРИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И ИСТОРИИ РЕМЕСЛЕННОСТВА УЗБЕКИСТАНА: «ДОМ ПОЛОВЦОВА» И ЕГО СОЗДАТЕЛИ

Государственный музей прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана расположен в самом центре Ташкента, на тенистой улочке махалли, носящей имя известного узбекского композитора Юнуса Раджаби. Музей знаменит не только своей коллекцией. Здание, которое он занимает, само по себе является уникальным художественным объектом, одним из самых красивых старинных особняков города. Каждому ташкентцу оно известно как «дом Половцова», русского дипломата, ориенталиста и коллекционера. Помимо Александра Александровича Половцова, был еще один человек, судьба которого неразрывно связана с этим зданием – уроженец Ташкента Михаил Степанович Андреев. В этой связи рассказ о Музее и хранящейся в нем коллекции необходимо начать с истории самого дома и упомянутых персон, сделавших его знаменитым.

«Дом Половцова»: жемчужина Ташкента

В 1896 году в Ташкент из Санкт-Петербурга прибыл чиновник по особым поручениям Министерства внутренних дел А.А. Половцов (1867–1944), для изучения состояния и проблем переселенческого дела в Центральной Азии и Закавказье. Представитель известного дворянского рода, помимо дипломатической службы Половцов живо интересовался археологией и этнографией, был членом Туркестанского кружка археологов, обладал широким кругом знакомств в мире искусства.

По рекомендации знатока Туркестанского края, этнографа В.П. Наливкина Половцов принимает на работу в качестве секретаря Михаила Андреева (1873–1948), полиглота, блестяще знающего не только узбекский, но и таджикский, арабский, казахский языки. Увлечение языками привело к тому, что Андреев увлекся также изучением этнографии, истории, археологии и искусства. Выполняя поручение своего нового начальства, он приобретает у ташкентского предпринимателя Н.И. Иванова дом и занимается его перестройкой. Строительные работы велись под наблюдением архитектора А.А. Бурмейстера. М.С. Андреев, в свою очередь, занялся оформлением интерьеров, пригласив для этого именитых народных мастеров того времени. Увлечение Половцова местным искусством и блестящие знания Андреева в этой области сыграли

ключевую роль в выборе стиля оформления – было решено воплотить в нем лучшие достижения в сфере национального архитектурного декора. Так было положено начало созданию великолепного шедевра зодчества, ставшего украшением Ташкента.

В оформительских работах принимали участие не только лучшие мастера Ташкента, но и представители Бухары, Намангана, Коканда, Ура-Тюбе. Среди них – Алимджан Касымджанов, Шерали Ходжа Хасанов (Ташкент), усто Адиль, усто Хасан (Бухара), усто Рауф (Ура-Тюбе) – роспись по дереву, Ата Палванов (Хива), Умурзак Ахмедов (Маргелан) – резьба по дереву, усто Вакиль, Арсланкул Назаров, Ташпулат Арсланкулов (Ташкент) – резьба и роспись по ганчу, усто Каль Абдулла (Риштан) – керамика и другие. Каждый из названных персон оставил свой след в декоративном оформлении этого здания.

Так, работами по росписи здания руководил усто Алимджан Касымджанов. Мозаика панелей зала и айвана выполнена риштанскими мастерами под руководством знаменитого мастера усто Абдуллы – талантливого керамиста по прозвищу усто Каль. В прошлом он имел собственную мастерскую, где готовил керамистов не только для Средней Азии, но и для Кашгара, Китая, Ирана. Северная и южная стены зала выделены двумя нишами-таучи с решетчатой резьбой по ганчу – панджара. В орнаментации таучи и отдельных резных панно принимал участие усто Ташпулат Арсланкулов. Бухарский мастер усто Ширин Мурадов оформлял айван, южные и западные стены.

Сама усадьба занимала участок площадью 150 гектар, где вокруг центрального корпуса располагались флигель, конюшни, хозяйственные постройки, а также сад. Между центральным корпусом и флигелем был устроен водоем. Во дворе возвышались дубы с раскидистыми кронами, один из которых сохранился до нашего времени.

Основной фасад ориентирован на север. Ступени мраморной лестницы ведут на небольшой айван, из которого через массивную двойную дверь посетители попадают в просторный парадный зал – мехмонхону.

Из мехмонхоны можно было попасть в помещения, где в то время размещались библиотека, приемная комната-кабинет, спальня и ванная. В южной стороне располагались комнаты для гостей (помещения для временных выставок, ныне – художественный фонд Музея) с окнами, выходящими на восток. В противоположном – западном – крыле разместились служебные помещения, окна которых защищала от солнца большая крытая терраса с резными деревянными колоннами.

Экстерьер фасада, к которому примыкает айван, интерьеры мехмонхоны и соседней кальянной с изразцами, резьбой и росписью по дереву и ганчу являют собой великолепные образцы стенного декора, выполненного в национальном стиле. Состояние отделки не везде одинаково. Лучше всего сохранился декор потолков. В некоторых помещениях художественное оформление полностью утрачено.

Распределяя декоративные акценты на поверхности стен мехмонхоны, мастера исходили из традиционных приемов, характерных для оформления интерьерного пространства богатого дома. В нижней части стен размещалась не-

высокая панель, облицованная керамической плиткой. В верхней – широкий многоярусный деревянный карниз, который служит переходом к балкам потолка. Средняя, большая часть стенной поверхности, разбита на множество изумительно декорированных панно и ниш. Все части стенной поверхности – панели-панно, ниши и карнизы украшены росписью и резьбой по ганчу и дереву в ковровом стиле.

Все три яруса карниза украшены сталактитами-шарафа. Потолок поддерживается четырьмя стройными колоннами, также украшенными росписью и резьбой. В центре потолка и по углам, как дополнительная декоративная деталь, расположены сталактитовые углубления – хаузак. Поверхность потолка обита планками, создающими сетку сложного геометрического узора – гирих. Помимо планок, он расписан в технике кундаль, в которой узор создается тонким листовым золотом, наклеенным на поверхность дерева с помощью меда или патоки.

В середине зала был устроен восьмигранный бассейн с фонтаном, для которого на крыше была сооружена водонапорная башня. Из канала, находящегося в южной части участка, по специальным трубам диаметром 100 мм в отстойник поступала вода, далее из отстойника при помощи насоса она поднималась в водонапорную башню, очень удачно вписавшуюся в архитектуру здания. Из бассейна, находящегося в главном большом зале, в котором ранее плавали золотые рыбки, вода попадала в глубокий колодец, находящийся в подвале под большим залом, и имеющий систему вспомогательного водопоглощения из свинцовых труб. В 1948 году бассейн был заложен.

Из центрального зала дверь ведет в так называемую кальянную, стены которой не менее богато украшены резьбой по ганчу и росписью с позолотой. Деревянный потолок кальянной разбит на отдельные кессоны. В центре потолка – хаузак, украшенный резными сталактитами.

Декор центрального зала и кальянной представляет собой своего рода энциклопедию узбекистанского архитектурного орнамента конца XIX века.

В других залах художественная отделка не сохранилась, если не считать деревянного потолка одной из комнат с рельефной росписью, сплошь покрывающей деревянные балки, хаузаки и кессоны, разбивающие потолок на отдельные квадраты.

По воспоминаниям М.С. Андреева, руководившего работой мастеров, не смотря на поиски, не удалось найти сухой лес соответствующего размера для изготовления двух больших резных дверей. Тогда старый мастер-таджик из Ходжента предложил изготовить двери из сырой древесины чинары, предварительно специальным образом обработанного. По его указанию были сделаны плоские ванны из железа и подготовлены предназначенные для дверей чинаровые доски. Изготовленные из этих досок резные двери стоят до сих пор без единой трещины. Надпись над дверью следующего содержания: «Мир наш подобен дворцу: имеющему две двери. В одни двери люди входят, в другие выходят». Над второй дверью надпись гласила: «В этом доме каждый день бывают гости из разных стран».

В 1902 году перестройка здания была закончена полностью, включая внутреннее декоративное оформление. В 1904 году газета «Самарканд» в рубрике «Корреспонденция из Ташкента» сообщила о завершении перестройки старинного дома Череванского, впоследствии принадлежащего Н.И. Иванову и в итоге перешедшего в собственность А.А. Половцова.

До 1937 года в его стенах размещались: сиротский приют, педагогический техникум, школа фабрично-заводского обучения железнодорожников Ташкента, учебный центр резьбы по ганчу и чеканке, вышивальный цех.

В 1937 году при ликвидации Музея народного хозяйства Узбекистана Отдел кустарных ремесел стал постоянной самостоятельной выставкой. Центральный зал «дома Половцова» с примыкающей к нему комнатой специальным постановлением СНК УзССР (Совет народных комиссаров) был передан Правлению Промкооперации УзССР для организации Выставки прикладного искусства. Таким образом, с 1937 года в доме разместился Музей кустарных промыслов.

На сегодняшний день Государственный музей прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана посещают высокопоставленные гости, представители дипломатических корпусов, международных организаций, деятели культуры и искусства, туристы из разных стран мира, а также жители всех регионов нашей страны. Можно с уверенностью сказать, что данный архитектурный памятник является не только одним из выдающихся культурных и туристических центров Ташкента, но и достоянием узбекского народа.




M. Andreyev, sharqshunos, etnograf, O'rta Osiyo xalqlari madaniyati tadqiqotchisi. Xo'jand, 1915-yil. Internet manba

M. Andreev, an orientalist, ethnographer and researcher of the culture of the peoples of Central Asia. Khujand, 1915. Internet resource

М. Андреев, востоковед, этнограф, исследователь культуры народов Средней Азии. Ходжент, 1915 г. Интернет-ресурс











MUZEY TARIXI

HISTORY OF THE MUSEUM

1900-1914-1915

MUZEY TARIXI

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi mamlakatimizdagi eng qadimiy muzeylardan biri hisoblanadi. Bir necha o'n yillar davomida faoliyat yuritib kelayotgan ushbu muassasa bu yerga tashrif buyurayotgan kishilar O'zbekistondagi turli xil amaliy san'at turlari, mashhur maktablar va turli hunarmandchilik markazlarining tarixi, yigirmanchi asrning taniqli ustalari hayoti bilan bog'liq juda mukammal ma'lumotlarni olishlari mumkin bo'lgan eng katta ma'rifiy markazga aylandi.

Muzeyning tashkil etilishi tarixi 1927-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Xalq ustalari asarlari ko'rgazmasi o'tkazilishidan boshlanadi. Unda bu tadbirdan bir yil oldin tashkil etilgan Badiiy hunarmandchilik mahsulotlarini musodara qilish komissiyasi tasarrufida saqlanayotgan buyumlar namoyish etildi. Oradan bir muddat vaqt o'tgach, ushbu ko'rgazmani keyinchalik "O'zbekiston xalq xo'jaligi ko'rgazmasi" deb nom olgan doimiy ravishda faoliyat olib boruvchi ko'rgazmaga aylantirishga qaror qilindi. O'z navbatida, 1937-yil 7-iyulga kelib, mazkur ko'rgazma asosida XIX asr oxiriga oid me'morchilik durdonasi sanalgan, Toshkent shahrining mashhur "Polovsov uyi"da joylashgan hunarmandchilik muzeyi (hozirgi O'zbekiston davlat amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi muzeyi) ochildi.

Ushbu qaror juda o'rinli edi, zero binoning o'zi amaliy san'atning birvarakayiga bir nechta turlari – o'ymakorlik, ganch va yog'ochga o'yma naqsh solish, kulolchilikning namunasi bo'lgan.

Muzey fondlari zamonaviy ustalarning kashtalar, do'ppilar, zargarlik buyumlari, gillamlar va boshqa xalq amaliy san'ati namunalaridan iborat ijodiy ishlari bilan ham, o'tgan asrlarga oid artefaktlar bilan ham doimiy ravishda to'ldirib borildi.

1939-yilda "Polovsov uyi"ni restavratsiya qilish uchun 168 ming rubl mablag' ajratilgan. Ko'rgazmalar va eksperimental ustaxonalar direktori N.N. Sherstnev vakili bo'lmish Ras-

somlar uyushmasi va Me'morlar uyushmasining qo'shma komissiyasi restavratsiya bo'yicha taklif etilayotgan ishlarning ko'lamini va yo'nalishlarini belgilab berdi. Restavratsiya jarayonida (markaziy) zal, unga tutash kichik zal (chilimxona) va ayvonni bezash va jihozlash nazarda tutilgan. Restavratsiyaga tayyorgarlik ishlari binodagi ichki jihozlarning asl qiyofasini saqlab qolish maqsadida aniq reja asosida olib bo-





*Shveysariya madaniyat haftaligi
qatnashchilari Muzeyga tashrif chog'ida.
20.09.1989-y.*

*The Swiss culture week participants visit the
Museum.
20.09.1989*

*Участники Недели швейцарской
культуры во время посещения Музея.
20.09.1989 г.*

rildi. Maslahatlashuv uchun ushbu binoning XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga oid me'moriy yodgorlikka aylanishiga bevosita o'z hissasini qo'shgan M.A. Andreyevning shaxsan o'zi taklif qilingan. Restavratsiya rejasi tasdiqlangan va 1941-yil aprel oyida ishlar boshlab yuborilgan. Ta'mirlash va qayta tiklash ishlari uchun umumiy bezakning shikast yetgan qismlaridan fotosuratlar olingan. To'rt oylik eksperimental tajribalardan so'ng Sanoat ishlari xalq komissariyati tasarrufidagi Keramika zavodi katta zal va ayvondagi pannellarni qayta tiklash uchun sirlangan sopol koshinlar tayyorlab berdi.

Restavratsiya ishlarining asosiy yo'nalishi markaziy zaldagi va ayvondagi buzilib ketgan dekorativ unsurlarni imkon qadar tiklash, shuningdek, bezakli pannollarni chang va qurumlardan tozalashdan iborat bo'lgan. Bu jarayonda katta va kichik zallardagi o'ymakorlik uslubida ishlangan pannolarning, shuningdek, ayvonlarning yetishmayotgan qismlari qayta tiklandi, ganchlarning bezakli qismi chang va qurumdan tozalandi. Jarayonlarga xalq hunarmandlari Olimjon Qosimjonov (yog'ochga naqsh chizish ustasi), usta Vakil (ganch o'ymakorligi va naqsh ustasi) jalb qilingan.

Restavratsiya ishlari 1941-yil oktyabrga qadar to'liq tugallandi va bu yerda O'zbekiston badiiy sanoat uyushmasi tizimining mahsulotlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Markaziy zal tagida joylashgan yerto'lada, fondlarni saqlash uchun mo'ljallangan javonlar joylash-tirildi.

1950-yilda binoning g'arbiy burchagiga tutashgan ombordan yong'in chiqib, ayvonning g'arbiy qismiga zarar yetkazdi, karnizning bir qismi va ustunlarning g'arbiy tomondagilari butunlay yonib ketdi.

1960-yilda muzey O'zbekiston Mahalliy sanoat vazirligining tasarrufiga o'tkazildi va "O'zbekiston amaliy san'atining doimiy ko'rgazmasi" nomi bilan mashhur bo'ldi.

1961-yilda zallardan biri va ayvonning shifti restavratsiyadan chiqarildi, ganch qismi tuxum sarig'idan tayyorlangan bo'yoqlar bilan qayta bo'yab chiqildi. Naqqoshlik durdo-nasining tuzatish ishlari amaliy san'at sohasining har tomonlama yetuk rassomi, Olimjon Qosimjonovning shogirdi, Toshpo'lat Arslonqulov va usta Shirin Murodovning respublika bilim yurtida birga ishlagan hamkasbi, O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, naqqosh Toyir To'xtaxo'jayevga ishonib topshirildi.

Oltmish kun davomida T. To'xtaxo'jayev va uning shogirdlari F. To'xtaxo'jayev, T. Na-biyev va V. Karimov birgalikda 20 kvadrat metrdan ziyod dekorativ naqshlarni mashhur hunarmandlarning uslub va mahoratlariga mos tarzda qayta tikladilar. Ayvonni restavrat-siya qilish paytida ganchdan ishlangan pannodagi fonning naqshlari yana chiroy ochdi. Shiftga avvalgi naqshlarga qarab yangi naqshlar qo'shildi. Ustunlar va karniz ham yan-gidan, ammo moybo'yoqlar bilan bo'yaldi. Ularning naqshlari juda yomon saqlangan edi, ammo usta T. To'xtaxo'jayev naqshlarning ko'zga tashlanib turgan qoldiqlaridan andozalar yasab, ularning yordamida bezakni to'liq qayta tikladi. Shuningdek, yo'lak bo'ylab joylash-gan (1960-yilda muzeyga birlashtirilgan) xonalardagi shiftlarning ham eski naqshlari yopilib, yangidan bo'yab chiqildi. Markaziy zalning shiftiga tegilmadi. Faqat shu joy ushbu uydagi bezaklarning qadimiy qismi bo'lib qolgan.

1969–1971-yillarda Muzeyning ekspozitsiya maydonini kengaytirish to'g'risida yangi qaror qabul qilindi – "Polovsov uyi" nomi bilan mashhur bo'lgan qismiga bir nechta yangi binolar qo'shildi. Shu tarzda sharqiy qanotga shimoliy tomondan va g'arbiy fasad qismiga ekspozitsiya zallarining zamonaviy korpuslari qo'shildi, shuningdek ayvonning maydo-ni, zinapoyalar ta'mirlandi va qo'shimcha maydon birlashtirildi. Natijada markaziy qismida keksa eman daraxti qad rostlagan yopiq hovli hosil bo'ldi. 1971-yilda ayvonning naqshin-kor ustunlari ham T. To'xtaxo'jayev rahbarligida qaytadan tiklandi. Eng oxirgi restavratsi-ya ishlari esa 1977-yilda D. Hakimov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u faqat iqlimiy sharoitning ta'sirida tez o'zgarishga uchraydigan ayvon devorlaridagi ganchlarni qamrab olgan.

Mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng muzeylar ishi va O'zbekiston xalqlari ama-liy san'atining rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1997-yil 31-martda qabul qilingan "Xalq ba-diiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'l-

lab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Muzey amaliy san'at sohasiga oid asarlarni to'playdigan yetakchi markazlardan biri sifatida u yoki bu hunarmandchilik an'alarini davom ettiradigan xalq hunarmandlari va rassomlari uchun o'ziga xos ijodiy laboratoriyaga aylandi.

Muzey hayotida, muzeylar faoliyatini takomillashtirish, "O'zbekmuzey" jamg'armasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 1994- va 1998-yillarda qabul qilingan qarorlari ham muhim rol o'ynadi. Ularda muzeylar tizimini, fondlarda saqlanayotgan bebaho eksponatlarning asralishi, o'rganilishi, ko'rgazma faoliyati va ommalashtirish bo'yicha ishlarning yanada takomillashtirilishi zarurligi ta'kidlab o'tilgan.

1997-yilga kelib Muzey O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tasarrufiga o'tkazildi va davlat amaliy san'at muzeyi maqomiga ega bo'ldi. 2017-yil 20-dekabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi 1003 sonli qarori qabul qilindi.

Bugungi kunda "Polovsov uyi" moziyga sayohat qilishni, unda an'anaviy o'zbeklar uyining ajoyib ichki bezaklarini ko'rishni, shuningdek, Amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi muzeyining muhtasham ekspozitsiyasi bilan tanishishni istagan har bir kishini har doimgiday mehmondo'stlik bilan kutib oladi. Uning fondlari va ekspozitsiyalarida III-IV asrlardan tortib hozirgi kungacha yaratilgan hamda 20 ta alohida kolleksiyalarni tashkil etgan yetti mingga yaqin eksponatlar mavjud. Shunga qaramay, kolleksiyaning o'ziga xos boshqa xususiyatlari ham borki, unda XIX-XX asrlarga oid buyumlar juda ko'plab topiladi. Ular alohida o'yma naqshlar hamda yog'och va ganchga ishlangan naqshlarning namunalari, mis kandakorligi buyumlari, zargarlik, zardo'zlik bezaklari, matolar-u liboslar gul bosilgan matolar, badiiy kashtachilik mahsulotlari, gilamlar, loklangan miniatyuralar, milliy musiqa asboblari, chinni va shisha buyumlardan iborat.

Ularning orasidan eng yaxshilari doimiy ravishda o'tkaziladigan ko'rgazmali yondashuvlarga asoslangan (amaliy bezak san'atining ayrim turlari uchun) va hududiy (barcha hududiy san'at maktablari va markazlarining har bir turi namunalari bilan taqdim etilgan) ko'rgazmalarda namoyish etiladi.

To'liq ekspozitsiya 13 zalni tashkil qiladi. Ekspozitsiyaning marshruti Buxoro, Nurota, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo hunarmandlari tomonidan qo'lda tikilgan turli kashtalar kolleksiyasini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Xuddi shu zallarda mehmonlar Farg'ona vodiysi, Shahrisabz va Boysun aholisining an'anaviy bosh kiyimlari bilan tanishish imkonini beradigan do'ppilar kolleksiyasi bilan, shuningdek, an'anaviy liboslarning ayrim namunalari bilan ham tanishishlari mumkin.

Bu yerdagi alohida binoda O'zbekistondagi barcha asosiy kulolchilik maktablari va markazlarida ishlangan, kulolchilik san'atining eng sara namunalari, xususan, Rishton, G'urumsaroy va Xorazmning dunyoga mashhur ko'k tusli kulolchilik buyumlarini ko'rish mumkin. Xuddi shu zalda joylashgan loydan ishlangan o'yinchoqlar to'plami ham o'zining ta'sirchanligi va o'zgacha bichimi bilan hayratga soladi. Bular xalq ustalari va malakali hunarmandlarning asarlaridir.

Muzeyda qo'lda ishlangan milliy kashtalarning yirik to'plami ham saqlanadi. Ular orasida Marg'ilon, Namangan va Samarqandda ishlab chiqarilgan, an'anaviy, abr (bulut) naqshli ipak matolar alohida ahamiyatga ega.

Lokli miniatyuralar bilan jihozlangan stendlar XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan ushbu turdagi san'atning eng sara namunalaridan bahramand bo'lish imkoniyatini beradi. Yog'och o'ymakorligiga alohida bino ajratilgan. Bu yerda eshik va ustunlarni, shuningdek, kichik qutilar, lavhlar, qalamdonlar va boshqa o'ymakorlik uslubida ishlangan buyumlarni ko'rish mumkin. Bu yerdan keyin mehmonlar zargarlik san'ati va zardo'zi kashtachilikka bag'ishlangan zalga kirishadi. XIX asrning oxiri va XX asr madaniyatining hashamdorlik tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan jihatini anglash imkonini beradigan amaliy san'atning ushbu ikki turi bir-birini mukammal ravishda to'ldiradi. Nihoyat, yana bir alohida zal badiiy metall ekspozitsiyasi uchun ajratilgan. Muzeyda taqdim etilgan kandakorlik kolleksiyasi respublikadagi eng yaxshi to'plamlardan biridir.

Ekspozitsiyaning barcha bo'yliklarini inobatga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, Muzeyning eng mazmunli, e'tiborli eksponati bu uning asosiy binosi, aniqrog'i, uning ichki qismining bezaklari hisoblanadi. Tantanali qabul marosimlari o'tkazib kelingan ayvon, mehmonxona – marosimlar zali va "chilimxona" deb nomlangan alohida zal bizning davrimizgacha o'zining asl qiyofasini saqlab qolgan. Devorlari va shiftlari to'liq ganch o'ymakorligi, nafis naqshlar va sirlangan guldor sopol koshinlar bilan bezatilgan ushbu xonalar, XIX asr oxirlariga oid O'zbekiston amaliy-bezak san'atining eng yorqin namunalari hisoblanadi.

Xivalik mashhur yog'och o'ymakorlaridan bo'lgan usta Ota Polvonov tomonidan ajoyib naqshlar bilan ishlangan kirish eshiklari to'g'ri markaziy zal – mehmonxonaga boshlab boradi va ular ham o'ziga xos muzey eksponati sanaladi. Zalga kirish eshiklari 2011-yilda yog'och o'ymakorlari yosh avlodi vakili usta Jamshid G'oirov tomonidan bezatilgan. Nafis islmiy naqshlar O'zbekiston amaliy san'ati olamiga tantanali kirib borilayotgandek taassurot uyg'otadi.

Mehmonxonaning ichki qismi tantanali qabullar uchun mo'ljallangan va alohida dab-daba bilan bezatilgan. Uning devorlarining yuza qismi tuxum sarig'idan tayyorlangan bo'yoqlar bilan yorqin rangga bo'yalgan o'yma ganchdan ishlangan alohida pannolar bilan bezatilgan va pannolarni to'ldiruvchi dekorativ kompozitsiyalar hech qachon takrorlanmaydi. Yog'och ustiga badiiy naqqoshlik uslubi bilan ishlangan zalning mahobatli shifti sharafo – stalaktitlar bilan bezatilgan uchta qavatdan iborat bo'lib, uni to'rtta ingichka, shu bilan birga o'ymakorlik uslubida va naqsh berish yo'li bilan bezatilgan ustunlar ko'tarib turadi. Shiftning markazida va burchaklarda stalaktitli chuqurcha – hovuzaklar mavjud bo'lib, ularda o'yma ganchdan yasalgan qandillar osilgan. Devorlarning pastki qismi sirlangan sopol koshinlar bilan qoplangan. Zalning shimoliy va janubiy devorlari ikki tomonlama o'yilgan naqshli ganch uslubida ishlangan tokchalar bilan bezatilgan. Mehmonxonaning devorlaridan birida mehrobni eslatadigan dekorativ tokcha bor. Marosimlar uchun mo'ljallangan zalni bezatishda kaminlar va o'ymakor eshiklardan ham foydalanilgan bo'lib, ularning ustida arab yozuvida har xil duolar yozilgan sirlangan guldor sopol panno mavjud.

Chilimxonaning bezak boyligi mehmonxonaning bezatilishidan aslo kam emas. Unga nisbatan kichkinaroq bu xonaning yog'ochdan yasalgan kessonli naqshinkor shiftlari serhashamlik bilan bezatilgan, devorlari ganch o'ymakorligi uslubida ishlanib, zarhal berilgan va ular o'z o'rnida bezaklarga o'zgacha nafislik baxsh etadi. Chilimxonadagi ekspozitsiyani O'zbekiston xalq rassomi Ch. Ahmarov tomonidan chizilgan "Kulol", "Kashtachilar", "Bahor raqsi", "Ertak" va "Ilmiy munozara" nomli beshta chiroyli pannolar to'ldirib turibdi. Ular sharqona miniatyura uslubida ishlangan bo'lib, bir necha o'n yillar oldin yaratilgan guldor hoshiyalarga uzviy ravishda mos keladi.

Mehmonxona va chilimxonani bezatish ishlarida XIX asr oxirida yashab ijod qilgan toshkentlik Sheralixo'ja Hasanov, Arslonqul Nazarov, Toshpo'lat Arslonqulov, Olimjon Qosimjonov, qo'qonlik Norqo'zi Nurmatov, rishtonlik usta Abdullo va marg'ilonlik Umurzoq Ahmedov kabi mashhur o'zbek ustalari ishtirok etishgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Muzeyda an'anaviy hunarmandchilik buyumlaridan tashqari, XX asr noan'anaviy amaliy-bezak san'atining ajoyib namunalari ham saqlanadi. Ular orasida badiiy shisha, chinni va sopol buyumlar, zargarlik buyumlari, kichik hajmli haykaltaroshlik namunalari bor. Ushbu guruhga kiruvchi ba'zi asarlar o'tmish merosidan ilhomlanib ishlangan bo'lsa, ba'zilari hech qanday an'analar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy mualliflik izlanishlarining samarasi hisoblanadi.

Ko'pgina eksponatlar amaliy san'atning jahon madaniyati xazinasiga kiritishga loyiq durdonalari sanaladi. Umuman olganda Muzey kolleksiyasi juda katta badiiy va ma'rifiy ahamiyatga ega. U doimiy ravishda yangi noyob buyumlar bilan boyitilib boriladi va o'z o'rnida badiiy hunarmandchilikning rivojlanishi tarixi, O'zbekiston xalq ustalarining bir necha avlodi ijodiy faoliyati haqida hikoya qiladi.

So'nggi o'ttiz yil mobaynida Muzey respublikaning eng mashhur madaniy, ma'rifiy va ilmiy markazlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Uning asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston amaliy san'ati ustalari va rassomlarining eng ilg'or yutuqlarini, hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan o'ziga xos maktablar, markazlar hamda amaliy san'at va badiiy hunarmandchilik asarlari an'alarini saqlash, o'rganish hamda ularni respublika va xalqaro miqyosda keng ommalashtirish;
- O'zbekiston amaliy san'ati va milliy hunarmandchilik tarixi hamda xalqimizning boy madaniy merosini, uning insoniyat tarixidagi rolini xolis yoritish;
- mamlakatimizning madaniyat, san'at va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlarini keng targ'ib qilishga qaratilgan muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish;
- fuqarolarda, ayniqsa, yosh avlod orasida milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish.

Muzeyda doimiy ekspozitsiyalardan tashqari, har doim vaqtinchalik mavzuli ko'rgazmalar, xalq hunarmandlarining shaxsiy ko'rgazmalari tashkil qilinadi, muntazam ravishda Ochiq eshiklar kunlari, olimlarning ma'ruzalari, respublikada faoliyat olib boruvchi gidlar va hunarmandchilik sirlarini o'rganishni istaganlar uchun mahorat darslari o'tkazib



Muzey mehmonlari. 06.08.1968-y.

The Museum visitors. 06.08.1968

Посетители Музея. 06.08.1968 г.

boriladi. Muzey allaqachon tadqiqotchilar – tarixchilar, etnograflar, san’atshunoslar uchun ilmiy bazaga aylangan.

Muzey o’z vazifasi nafaqat amaliy san’at mahsulotlarini namoyish qilishdan, balki yosh hunarmandlarning ijodiy rivojlanishi va o’sishiga yordam berish, taniqli ustalarning nomlarini targ’ib qilishdan ham iborat deb biladi.

Doimiy va vaqtinchalik ekspozitsiyalar bazasida maktablar, litseylar, kollejlari va oliy o’quv yurtlari o’quvchilari uchun ekskursiyalar o’tkaziladi. Bizning eshiklarimiz o’zbek xalqining milliy san’ati sarchashmalari haqida ko’proq bilishni xohlovchi barcha xalq hunarmandchiligi ixlosmandlari uchun ochiq.

Muzey Toshkentga kelgan minglab xorijiy sayyohlar uchun diqqatga sazovor joylardan biridir. Ular uchun o’zbek, rus, ingliz, nemis va fransuz tillarida ekskursiyalar olib boriladi.

Ikkinchi tomondan, kolleksiyalarni Muzeydan tashqarida ommalashtirish bo’yicha ham doimiy tarzda ishlar olib borilmoqda. Kulolchilik san’ati, badiiy metall, yog’och o’y-makorligi va naqqoshligi, lok miniatyurasi asarlari, kashtalar, gilamlar, namatlar, zargarlik buyumlaridan tashkil topgan eng yaxshi 100 ta eksponatlar Qarshi shahrining 2700 yilligi va Marg’ilon shahrining 2000 yilligiga bag’ishlangan, nufuzli respublika muzeylar festivalida namoyish etildi.

Shuningdek, Muzey yirik xalqaro ko’rgazmalarning ham doimiy ishtirokchisiga aylangan. So’nggi o’ttiz yil ichida undagi eksponatlar bilan Yaponiya va Avstraliya, Buyuk

Britaniya va Germaniya, Fransiya, Italiya, Daniya, Belgiya, Shveysariya, Hindiston, Malayziya, Turkmaniston va boshqa mamlakatlar aholisi ham tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Xususan, Sidneydagi "Powerhouse" (Avstraliya) muzeyida bir necha oy davomida (27.07.2004-yildan 19.04.2005-yilgacha) "Yorqin ranglar: Markaziy Osiyo matolari va kulolchilik san'ati" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Ushbu ko'rgazmada O'zbekiston amaliy san'at muzeyi tomonidan qo'lda tayyorlangan bir nechta so'zanalar, erkaklar va ayollarning milliy liboslari hamda badiiy metall namunalari namoyish etildi.

2006-yilda Yaponiyaning Fukuoka, Ivaki, Okazaki, Kagava va Kioto shaharlarida "Buyuk Ipak yo'li va uning merosi" sayyor ko'rgazmasi bo'lib o'tdi, unda muzey tomonidan XIX asr va XX asr boshlarida Buxoro, Xorazm, Samarqand va Toshkent ustalari yaratgan zargarlik san'ati namunalari namoyish etildi.


Shuningdek, Muzey respublikaning amaliy san'atini Ozarbayjonda bo'lib o'tgan O'zbekiston Milliy ko'rgazmasida ham namoyish qildi.


2002-yilda Yaponiya hukumati Muzeyga beg'araz yordam ko'rsatib, audiovizual uskunalar, videoproyektor va fotolaboratoriya, statsionar muzey ekspozitsiyalari va sayyor ko'rgazmalarni tashkil etish uchun mo'ljallangan zamonaviy vitrinalar va stendlarni sovg'a qildi.

Albatta, har qanday muzey nafaqat undagi kolleksiyalar bilan, balki ularni saqlash va ommalashtirish uchun mas'ul bo'lgan odamlar mehnati bilan ham oboddir. Turli vaqtlarda muzeyni A.I. Sidorenko (1965-1970-yillar), S.M. Abdurazzoqova (1970-1978- va 1982-1986-yillar), G.I. Skorobogatov (1979-1982-yillar), Sh.G. G'aniyeva (1986-1988-yillar), I. To'xtaxo'jayeva (1988-yil), M.S. Rasulova (1990-1992-yillar), G.N. Nasriddinov (1992-1994-yillar), G.M. Chitkauskene (1994-1998-yillar), T.D. Do'stayev (1998-2009-yillar), N.N. Tolipova (2009-2013-yillar), Z.G. Xoliqova (2013-2015 yillar), G. Karimov (2015-2017-yillar), A.Sh. Mirzorahimov (2017-2018-yillar) kabi direktorlar boshqargan. Hozir muzeyga I.I. Yusupov rahbarlik qiladi.

Muzeyning shakllanishi va rivojlanishiga turli yillarda direktorning ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, direktor vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlab kelgan Yu.B. Yormuhamedova (1999-2009-yillar), bosh muhofiz F.G. Damamuhamedov (1980-1985-yillar), bosh muhofiz, katta ilmiy xodim Yu.S. Ribakov (1975-2004-yillar), bosh muhofiz K. Tursunaliyev (1999-2009-yillar), katta ilmiy xodim M.Ya. Lapayeva (1975-2009-yillar), bosh hisobchi M. Ya. Sokolova (1986-2005-yillar), katta kuzatuvchi E. Yo'ldosheva (1980-2006-yillar), fotograf V. Vyatkin kabi fidoiylarning juda katta mehnatlari singgan. Muzeyning mashhur an'alarini hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan ajoyib mutaxassislar - ko'rgazmalar bo'limi rahbari G.T. Jalolova (2006-yildan), katta ilmiy xodim, bo'lim boshlig'i S.R. Zohidova (1994-yildan) va boshqalar davom ettirib kelmoqdalar.

2027-yilda Muzey o'z tarixiga tamal toshi qo'yilgan muhim sana - ko'rgazmaning 100 yilligini nishonlaydi. Ushbu sanani Muzey xodimlari yangi rejalar va yutuqlar bilan qarshi olishga tayyorgarlik ko'rmoqdalar.





HISTORY OF THE MUSEUM

The State Museum of Applied Art and Handicraft's History of Uzbekistan is one of the oldest museums in our country. Functioning for several decades, it has turned into a large educational center, visitors to which can get the most complete information on the history of various types of applied arts in Uzbekistan, famous schools and centers of various crafts and famous masters of the twentieth century.

The history of the establishment of the Museum began with the Exhibition of Works of Folk Craftsmen organized in Tashkent in 1927. It presented items kept by the Commission for the Seizure of Artistic Handicraft Products formed a year earlier. Later it was decided to make the Exhibition of the National Economy of Uzbekistan permanently operating. In turn, on July 7, 1937, on its basis, the Museum of Handicrafts (now the State Museum of Applied Art and Handicraft's History of Uzbekistan) was opened, which is located in the famous Polovtsov House in Tashkent, which is a masterpiece of architecture of the late 19th century.

This decision was very expedient – after all, the building itself was an example of several types of applied art at once – carving and painting on ganch and wood, ceramics.

The funds of the Museum were constantly replenished both through the work of modern craftsmen and through the acquisition of artifacts of past centuries: embroidery, skullcaps, jewelry, carpets and other samples of folk art.

In 1939, 168 thousand rubles were allocated for the restoration of the Polovtsov House. Commission of the Union of Artists and the Union of Architects under the representation of N.N. Sherstnev, Director of the Exhibition and Experimental Workshops, determined the scope and direction of the proposed restoration work. It included: the decor and decoration of the large (central) hall, the adjacent small hall

(hookah room) and the iwan. Preparations for the restoration were carried out methodically to preserve the original appearance of the interior decoration of the building. M.A. Andreev was invited for consultations and directly involved in the transformation of this building into an architectural monument of the late 19th – early 20th centuries. The restoration plan was approved and work began





Muzey ekspozitsiyasi.
1960-y.

The exposition of the Museum.
1960.

Экспозиция Музея.
1960 г.

in April 1941. Photographs of the destroyed parts of the decor to be repaired and restored were taken. After four months of experimental work, the Ceramic Plant of the People's Commissariat of Industry produced glazed ceramic tiles for the restoration of panels in the large hall and the iwan.

The focus of the restoration work was to maximize the restoration of the lost decorative elements in the central hall and on the iwan, as well as to clean the decorative panels from dust and soot. In the process, the missing parts of the carved panels of the large and small halls, as well as the iwan were restored and the ganch decor was cleaned from dust and soot. The folk craftsmen Alimjan Kasimjanov (master of painting on wood), usto Vakil (master of carving and painting on ganch) were involved in the work.

The restoration work was mostly completed by October 1941, and the premises hosted an exhibition of products from the Uzhudozhpromsoyuz system (Uzbekistan Art and Industrial Union). Shelves were arranged for storing funds in the basement under the central hall.

In 1950, a fire broke out in a warehouse adjacent to the western corner of the building, damaged the western part of the iwan and burned part of the cornice and completely the western side of the column.

In 1960, the Museum was transferred to the jurisdiction of the Ministry of Local Industry of Uzbekistan and became known as the Permanent Exhibition of Applied Arts of Uzbekistan.

In 1961, under the leadership of Honored Art Worker of the Uzbek SSR, *nakkosh* Tair Tokhtakhojaev, the ceiling was restored in one of the halls and in the iwan and

the ganch was tinted with tempera paints. The restoration of masterpieces of painting was entrusted to T. Tokhtakhojaev, a versatile artist of applied arts, a student of Alimjan Kasimjanov, colleague of Tashpulat Arslankulov and usto Shirin Muradov at the republican specialized school.

For sixty days T. Tokhtakhojaev together with his students F. Tokhtakhojaev, T. Nabiev and V. Karimov restored more than 20 square meters of ornamental painting, preserving the style and level of famous craftsmen. During the restoration of the iwan, the background painting in the ganch panels was restored. The ceiling was re-painted according to the previous patterns. The columns and cornice were also painted anew but with oil paints. The pattern on them was very poorly preserved, but master T. Tokhtakhojaev made templates from the visible remnants of the drawing and completely restored the décor using them. The ceilings in the rooms along the corridor (attached to the museum in 1960) were also painted anew, having covered the old painting. In the central hall, the ceiling has not been touched. This is the only old part of the house ornamentation.

In 1969–1971, it was decided to expand the exposition area of the Museum and several new premises were added to the part that is known as the Polovtsov House. Thus, modern buildings of exhibition halls were added to the eastern wing from the north side and the western façade, the iwan site and steps were repaired and an additional site was added. Thus, a closed courtyard was formed with an old oak tree in the middle. In 1971, under the leadership of T. Tokhtakhojaev, the painted columns of the iwan were also restored. In 1977, D. Khakimov made the last restoration of only the ganch on the walls of the iwan, which quickly deteriorated under the influence of climatic conditions.

Широко распространенными в Узбекистане инструментами являются ударные – *дойра, ногора*; струнно-ударные – *цимбалы-чанг*; струнные – *дутар, гиджак, сато, танбур, рубабы* (кашгарский и афганский); духовые – *карнай, сурнай, най*. Без них не обходится ни одно выступление, будь то массовое празднество, камерное исполнение песен и танцев либо исполнение классической профессиональной музыки устной традиции – *маком*.

Мастерами художественного оформления музыкальных инструментов славятся Хорезм, Бухара, Самарканд, Ташкент, Коканд.

Большая часть музыкальных инструментов выполняется из дерева; их декоративное оформление тесно связано с искусством художественной деревообработки. Для этих целей используется тутовник, чинара, орех, урюк, а также бук и ель. Узбекские мастера смогли не только отшлифовать до тончайшего изящества форму инструмента, но и применить прекрасные материалы для его декора, например, полудрагоценные камни и перламутр для инкрустации. В художественной отделке музыкальных инструментов применяется также инкрустация из металла, кости, наборного дерева, различные виды резьбы и росписи по дереву.

В экспозиции Музея можно увидеть любимые народные духовые инструменты – старинную поперечную флейту – *най, карнай, гиджак*. Последний считается самым древним смычковым инструментом, афганский и кашгарский *рубаб*, в средние века почитавшийся как инструмент влюбленных.



*Usta A. Rasulov ish ustida.
G'elak qishlog'i,
1967-y.*

*Usto A. Rasulov at work. Gelak
village. 1967*

*Мастер А. Расулов за
работой. Поселок Гелак,
1967 г.*

Непременной принадлежностью больших оркестров народных инструментов является чанг. Судя по историческим источникам, прообразом старинного узбекского чанга была арфа – древнейший из известных в мире струнных музыкальных инструментов. По традиции *чанг* считается женским музыкальным инструментом, и, видимо, поэтому его корпус украшался изящной росписью в виде растительного орнамента и инкрустацией перламутром. *Ногора* – барабан – интересен тем, что его керамический корпус обтягивался сеткой из бычьих сухожилий.

Создателями инструментов, представленных в Музее, являются выдающиеся мастера У. Зуфаров, А. Закиров, А. Абдуллаев. Секреты старых мастеров заключаются в умении выбрать «поющее дерево», определить, для какого инструмента подойдет яблоня, абрикос, карагач, орешник или тутовник. Некоторые специалисты выращивают эти деревья у себя в саду. Не годы – десятилетия проходят, пока древесина станет пригодной для изготовления *рубaba* или *танбура*. Куски дерева годами выдерживают в сухом песке, чтобы оно равномерно просохло, затем высушивают на солнце или в печи. Постукивая по такому дереву, мастер чутко прислушивается к звуку и на слух определяет, на что оно больше сгодится: на *дутар*, *гиджак* или *дойру*.

Уникальные инструменты, выполненные знаменитыми мастерами, можно узнать не только по исключительному тембру звучания, но и по изысканной форме корпуса, любовной отделке тонкой орнаментальной резьбой или росписью по драгоценному дереву, инкрустации из кости и перламутра.



КК-2398. Инв. № 32, 33

Nog'ora

Toshkent. 1970-y.

Sopol, charm, ixhak, qo'lda yasalgan.

Diametri – 25,5 sm; 24,5 sm.

Balandligi – 32 sm; 32,5 sm

КП-2398. Инв. № 32, 33

Nagora

Tashkent. 1970.

Ceramic, leather, tendon, handmade.

Diameter – 25,5 sm; 24,5 sm.

Height – 32 sm; 32,5 sm

КП-2398. Инв. № 32, 33

Нагора

Ташкент. 1970 г.

Керамика, кожа, сухожилия, ручная работа.

Диаметр – 25,5 см; 24,5 см.

Высота – 32 см; 32,5 см



КК-5845. Инв. № 75

Chang

A. Zokirov.

Toshkent.

1987-y.

Yog'och, metall, sadaf.

Balandligi – 61,5 sm.

1) Uzunligi – 55 sm.

2) Uzunligi – 73,5 sm.

Eni – 38 sm

BR-5845. Инв. № 75

Chang

A. Zakirov.

Tashkent. 1987.

Wood, metal.

Mother of pearl.

Height – 61,5 sm.

1) Length – 55 cm

2) Length – 73,5 cm

Width – 38 cm

КП-5845. Инв. № 75

Чанг

А. Закиров.

Ташкент. 1987 г.

Дерево, металл, перламутр.

Высота – 61,5 см.

1) Длина – 55 см.

2) Длина – 73,5 см.

Ширина – 38 см



KK-5410. Инв. № 72

Afg'on rubobi

A. Zokirov.

Toshkent. 1986-y.

Yog'och, charm, ichak, sadaf, qo'lda yasalgan.

Uzunligi – 68,5 cm.

Eni – 18,5 cm

BR-5410. Инв. № 72

Afghan rubab

A. Zakirov.

Tashkent. 1986.

Wood, leather, tendon, mother of pearl, handmade.

Length – 68.5 cm.

Width – 18.5 cm

КП-5410. Инв. № 72

Рубаб афганский

А. Закиров.

Ташкент. 1986 г.

Дерево, кожа, сухожилия, перламутр, ручная работа.

Длина – 68,5 см.

Ширина – 18,5 см



KK-4989. Инв. № 64

Tor

A. Zokirov.

Toshkent. 1984-y.

Yog'och, charm, sadaf, metall, leska, qo'lda yasalgan.

Uzunligi – 86,5 sm

BR-4989. Инв. № 64

Tar

A. Zakirov.

Tashkent. 1984.

Wood, leather, mother of pearl, metal, line, handmade.

Length – 86.5 cm

КП-4989. Инв. № 64


Tar

А. Закиров.

Ташкент. 1984 г.

Дерево, кожа, перламутр, металл, леска, ручная работа.

Длина – 86,5 см





**KULOLCHILIK
VA MAYDA HAYKALTAROSHLIK**

CERAMICS AND SMALL PLASTIC ART

КЕРАМИКА И МЕЛКАЯ ПЛАСТИКА

KULOLCHILIK VA MAYDA HAYKALTAROSHLIK

O'zbekistonda kulolchilik idishlarini ishlab chiqarish o'zining qadimiy va mustahkam an'analariga ega. Kulolchilikka oid ko'plab saqlanib qolgan buyumlar uning eng keng tarqalgan hunarmandchilik turi bo'lganligini bildiradi. Turli xil tarixiy davrlarga tegishli bo'lgan kosalar va laganlar shakli hamda bezaklariga ko'ra juda ham xilma-xil va qiziqarli bo'lib, ular bir-biri bilan to'laqonli tarzda almashib turuvchi mahalliy va global uslublar doirasida mamlakatimizdagi san'at sohasi rivojlanishining asosiy bosqichlarini tasavvur qilish imkonini beradi.

XIX asrga kelib, o'zbek xonliklari hududlarida kulolchilikning Farg'ona, Buxoro-Samarqand va Xorazm kabi uchta asosiy maktablari vujudga kelgan. Har bir maktab o'zining dunyoga mashhur markazlari bilan shuhrat qozongan. Ushbu maktablar va markazlarining XX asr davomidagi taqdiri turli xilda kechgan. Ba'zilar asrlar osha saqlanib qolgan va keyinchalik yanada shuhrat qozongan bo'lsa, ba'zilar o'z faoliyatini to'xtatgan yoki butunlay yo'q bo'lib ketgan. O'zbekiston davlat amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi muzeyi ekspozitsiyalarida namoyish etilgan mahsulotlar kulolchilik san'atining ma'lum bir davrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish imkonini beradi.

Kulolchilik zalining vitrinalarida respublika hunarmandlari tomonidan tayyorlangan an'anaviy laganlar va guldonlar, kosalar, ko'zalar, shamdonlar, shuningdek, kulolchilik markazlarining kulollari tomonidan turli yillarda yaratilgan har xil idish turlari namoyish etilgan.

Rishton mamlakatimizdagi eng muvaffaqiyatli rivojlangan kulolchilik markazlaridan biri bo'lib, u XX asrdagi sinovli davrlarning og'ir qarama-qarshiliklariga qaramay, o'z an'analarini saqlab qolgan. Rishton kulolchiligi o'ziga xos yorqin va alohida xususiyatlarga ega. Bu xususiyat oq fondan keskin ajralib turuvchi kobalt (kumushrang) va yashil tusli feruza

rangli sirlar, qalami (mo'yqalam bilan naqsh chizish) deb nomlanadigan erkin, ta'sirchan uslubda chizilgan naqshlarda ko'zga tashlanadi. An'anaviy mahalliy shakldagi idish turlari orasida charxi deb ataladigan yassi idishlar yoki laganlar, har xil o'lchamdagi va shakldagi kosalar, o'rdak deb ataluvchi uzun suvidishlar, yuvinish uchun oftobalar va boshqa buyumlar mavjud. Pishgan sopol bo'lagi ustiga mo'yqalam





Usta Muhitdin Rahimov.
26.09.1985-y.

Usto Mukhitdin Rahimov.
26.09.1985

Усто Мухитдин Рахимов.
26.09.1985 г.

bilan erkin naqsh chizilgandan so'ng ikkilamchi qizdirish texnikasi, mahalliy o'tlarning kulidan olingan ohakka o'ta boy bo'lgan ishqorli sirdan foydalanish, oq-ko'k ranglar uyg'unligi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bezak naqshlari ushbu markazning yorqin tarzda ajralib turuvchi o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

O'ziga xos ranglari tufayli Rishton idishlarini "O'zbek gje-li" deb atashadi. Mahalliy kulollar orasidagi kobaltga (kumushrangga) bo'lgan ishtiyoq XIV asrning oxirlarida, Amir Temur o'sha davrda juda qadrli bo'lgan oq-ko'k tusli Xitoy chinnilarining sirini ochishga buyurgan paytlardayoq paydo bo'lgan. Xitoyliklar tajribasi o'zbek tuprog'ida o'ziga xos tarzda rivoj topdi: ustalar mahalliy loylardan moviy va ko'k naqshlar bilan bezatilgan, oq sir bilan qoplangan chinni, ya'ni xitoycha sopol deb ataladigan yarim fayans mahsulotlarni ishlab chiqarishni boshladilar. Rishton usta-ko'zagarlarining ochiq ko'k tusdagi ishqorli sir bilan qoplangan kulolchilik mahsulotlariga bo'lgan talab juda oshib ketdi. XX asrning o'rtalariga kelib, ko'k tusli kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish sirlarining ko'pi unutildi. Ammo vaqt o'tib, Rishton ustalari nafaqat ishqorli sir olishning qadimiy texnologiyasini qayta tikladilar, balki qadimiy shakllarni va bezaklarni ham yangidan hayotga qaytarishdi.

Muzey ekspozitsiyalarida O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi Sh. Yusupov, I. Komilov, A. Nazirov kabi ustalar tomonidan yaratilgan chorbarg, bodomgul, anor naqshlari bilan an'anaviy tarzda bezatilgan asarlar mavjud. Vitrinalardan birida faqat Rishton kulolchiligiga xos bo'lgan betakror shakldagi obdasta o'rdak namoyish etilmoqda. Yaqin o'tmishda bunday qovg'alarda musallas tortilgan. Bugungi kunda Rishton kulolchiligi jadal rivojlanib bormoqda va o'z o'rnida mumtoz merosning yangi talqinlarini ham taklif qilmoqda, ammo Muzey kolleksiyalari asl Rishton uslubidagi asarlarni ko'rish va ularning haqiqiy qadr-qimmatini anglash imkoniyatini beradi.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi usta Raimberdi Matchonov.

Xorazm, Xonqa tumani, Madir qishlog'i, 1979-y.

Honored Worker of Culture of Uzbekistan Usto Raimberdi Matchanov.

Madyr village, Khanka district, Khorezm. 1979

Заслуженный работник культуры Узбекистана усто Раимберди Матчанов.

Село Мадыр Ханкинского района, Хорезм, 1979 г.

Farg'ona vodiysidagi mashhur kulolchilik markazlaridan yana biri – Namangan viloyatining Pop tumanida joylashgan G'urumsaroy markazi hisoblanadi. Katta laganlar, yonlari keng yoyilgan chuqur kosalar, qaymoqdonlar, xurmachalar, sut solish uchun mo'ljallangan ko'zachalar va boshqa uy-ro'zg'or ishlarida foydalaniladigan turli xil boshqa mayda idishlar G'urumsaroy ustalarining kulolchilik namunalari sanaladi. Mahsulotlarning koloriti o'ziga xos surma rangli zangori-yashil va ko'k ranglari bilan alohida ajralib turadi. Ornamental bezaklarida – “xo'roz toji” motivining o'zgarishi natijasida yuzagan kelgan an'anaviy chorbarg, xochsimon naqshlar, ko'pburchakli yulduzsimon bezaklar va boshqalardan keng foydalanilgan. Lekin asosan mahsulotlarga arxaik va bir qadar monumental ko'rinish beruvchi o'zaro ustma-ust tushgan oq-feruza rangli abstrakt naqshlardan faol foydalanish G'urumsaroy dekoratsiyasining asosiy farqlovchi xususiyati hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida G'urumsaroyda X. Satimov, M. Turopov va boshqa ko'plab taniqli ustalar yashab ijod qilishgan. Bugungi kunda ushbu kulolchilik markazining yagona vakili bu V. Buvayev bo'lib, uning asarlari ham ekspozitsiyada namoyish etilmoqda.

XX asr davomida Toshkent kulolchilik san'ati ham ajoyib taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Usta Mirali Toshkent kulolchilik san'ati an'alarining asoschisi hisoblanadi. Ushbu sulolaning haqiqiy davomchisi, uning oltinchi bo'g'in avlodi, 1920–1930-yillarda ijodi gullab-yashnagan Turob Miraliyev va uning o'g'illari bo'ldi. Turob Miraliyev o'zbek kulolchiligining ikkita an'anaviy uslubi – naqqoshlik va o'ymakorlikni birlashtirish va shu tariqa o'ziga xos chizma-qalami uslubini yaratish orqali Toshkent kulolchiligining dekoratsiyalarini boyitdi va uning rivojlanishiga o'zining juda katta hissasini qo'shdi. Kulol unutib yuborilgan texnologik va badiiy usullarni qayta tiklash bo'yicha o'z tajribalarini Toshkent badiiy sanoat o'quv-ishlab chiqarish majmuasi bazasida olib borgan.

Turob Miraliyevning yana bir izdoshi beshinchi avlod ajoyib kuloli usta Muhitdin Rahimov hamda uning o'g'li, O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi Akbar Rahimovlar bo'lishgan. Ushbu oila vakillari kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda turli davrlarda O'zbekiston hududlarida amalda qo'llanib kelingan turfa shakllar va badiiy usullarni qayta tiklash yo'lidan borishgan. Muhitdin Rahimov o'z oldiga arxeologik materiallarni puxta o'rganishni, qadimiy badiiy uslublar va bezak motivlarini, qadimiy bo'yoqlarni tayyorlash retsepturasini qayta tiklashni maqsad qilib qo'ygan. U o'zining ushbu puxta tadqiqotlari asosida Kushon podsholigi davridagi antiqa kulolchilik buyumlari, o'rta asrlar Afrosiyob kulolchiligi, Choch-Toshkent va boshqa ko'plab viloyatlar va davrlarning kulolchiligini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'ldi. Ushbu izlanishlar natijalari Muzey ekspozitsiyalarida namoyish etilmoqda.

Naqqoshlikning qadimiy usullaridan toshkentlik Ch. Sodiqov, Sh. G'iyosov, A. Raufov kabi boshqa mohir usta kulollar ham o'z ishlarida foydalanishgan.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi mahsulotlari ekspozitsiyalarda bir qator boshqa markazlarning mahsulotlari bilan birga namoyish etilgan. Barqaror rivojlangan va eng taniqli maktablardan biri Buxorodan qirq kilometr uzoqlikda joylashgan G'ijduvon maktabi sanaladi. G'ijduvonlik ustalar bezaklarni yaratishda har doim o'yma naqshlarni erkin

chizilgan naqshlar bilan birlashtirishni afzal ko'rishgan. Ushbu usuldan foydalanib, ular islamiy va handasaviy naqshlarni ham birlashtiradilar. Shuningdek, to'vus, uning dumlari yoki alohida bitta patining muayyan uslubga solingan tasvirlari ham mavjud. G'ijduvon kulolchiligining koloriti quyuq yashil yoki shaffof och yashil, sariq va to'q ko'k ranglarning qo'shilishidan hosil qilingan quyuq jigarrang tusdagi ranglarning teran gammasi bilan ajralib turadi.

Muzey kolleksiyalarida ushbu markaz ustalaridan Usmon Umarov va uning shogirdi, beshinchi avlod sulolaviy ustasi Ibodullo Narzullayevning mahsulotlari alohida o'rin tutadi. I. Narzullayev (1927–1987-yillar) – O'zbekistondagi eng taniqli kulollardan sanaladi. U nafaqat bebaho madaniy merosni asrab qolishga, balki markazning qadimiy an'analari rivojlantirishda davom etayotgan oltinchi avlod vakillari sanalgan o'g'illari Alisher va Abdulloga, shuningdek, qizi Nodiraga o'z hunarini o'rgatishga ham muvaffaq bo'lgan. 1997-yilda aka-ukalar G'ijduvon sirlangan kulolchilik markaziga asos solishdi. Bugungi kunda Narzullayevlar xalqaro va respublika amaliy san'at ko'rgazmalarining doimiy ishtirokchilari hisoblanadi.

Buxoro-Samarqand maktabi bilan bog'liq yana bir markaz Shahrisabz kulolchiligining taqdiri unchalik muvaffaqiyatli kechmagan. Bu markaz o'zining yupqa, jarangdor sopoli, olovli qizil, oxrali va qora ranglarning barcha tuslariga bo'yalgan kulolchiligi bilan ajralib turadi. Shahrisabz idishlarida katta va lo'nda tasvirlangan naqshlar erkin ta'sirchan maromda tushirilgan. Har xil turdagi barglar tasviri, "buqa ko'z" va "pishib yetilgan va daraxtdan to'p etib tushgan olma" mazmunida tushuniladigan "to'p etdi" naqshlari an'anaviy hisoblanadi. Shahrisabz kulolchiligining o'ziga xos uslubini yaratishda mashhur sulolaviy usta A. Hazratqulovning xizmatlari katta. Ekspozitsiyada ustaning asarlari, shuningdek, uning shogirdi, ustoz kabi qadimgi sirlash retseptlarini va naqshlarning sehrli tilsimlarini ehtiyotkorlik bilan saqlashga hissa qo'shib kelayotgan usta A. Muzaffarovning ishlari ham taqdim etilgan. Agar ushbu markaz faoliyatining tang holatda ekani hisobga olinsa, Shahrisabz kulolchiligiga oid bizning kichik kolleksiyamiz alohida ahamiyat kasb etadi.

XX asr davomida Samarqand kulolchiligi o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu maktab qo'rg'oshinli sirlash, qalami deb nomlanuvchi mo'yqalamda naqsh solish, asosan islamiy yirik bezaklardan foydalanish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Faqatgina ayrim holatlarda mahsulotlarni bezash uchun naqshlarni tirnab chizish – chizma usuli qo'llangan. Bu yerda idish-tovoq va piyolalar shakli ommabop shakllar hisoblanadi.

XIX asrning oxirlarida Rossiyadan fabrika mahsulotlari ko'p miqdorda kirib kela boshlashi bilan Samarqandning qo'lda ishlangan kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasi deyarli tanazzulga yuz tutdi. Meroslarning katta qismi unutila boshlangan bo'lsa-da, shaharda kulolchilik hunarmandchiligini saqlab qolgan ustalar ham bo'lgan. XX asrning ikkinchi yarmida mahalliy kulolchilik ustalari faqat o'z bobolarining tajribalaridan emas, balki arxeologik qazishmalar natijasida ochila boshlangan ancha qadimiy davrlarning merosidan ham ilhom olib ish olib borishgani bejiz emas. Ular uchun Samarqandning qadi-

miy shaharlaridan biri – oʻrta asrlarga oid Afrosiyob shahri ilhom manbai boʻldi. Bu yerdan topilgan nodir buyumlar asosida ular zamonlar orasidagi aloqalarni tiklab, kuydirilgan qizgʻish-jigarrang gildan asl idishlarni yarata oldilar. Jigarrang, sariq va yashil sir bilan boʻyalgan ushbu mahsulotlarda biz yer, suv, osmon, quyosh, yulduzlar tasvirlangan qadimiy timsollarni uchratamiz.

Muzeyda samarqandlik atoqli hunarmand, Oʻzbekiston xalq rassomi usta Umar Joʻraqulov va uning shogirdlari va izdoshlari – Sh. Azimov, X. Boturov, M. Nosirov tomonidan Afrosiyobning mayda haykaltaroshlik sanʼati va anʼanalari asosida yaratilib, ganchkor tafsillar bilan bezatilgan asarlarni koʻrish mumkin. Bu haykalchalarda gʻaroyib hayvonlar, ajdaholar, qushlar, tuyalar aks ettirilgan.

Muzeydagi alohida stend Xorazm maktabining kulolchilik buyumlari uchun ajratilgan. Ular koʻk-oq ranglarning gammasi va boshqa joylarda uchramaydigan noyob shakllari bilan alohida ajralib turadi. Stenddagi idishlar orasida chanoq, tik tomonlari va birmuncha baland asosga ega boʻlgan chuqur idish – badiya, sariyogʻ olish uchun kuvi idishlar – guppi, tahorat olish uchun koʻzalar – ibrik, moy chiroqlari – chirogʻ va albatta, har xil oʻlchamdagi suv, don, un va boshqa mahsulotlarni saqlash uchun moʻljallangan xumlar mavjud. Issiq iqlim sharoitida hech narsa loydan ishlangan xum kabi suvni va boshqa mahsulotlarni salqin va toza tutib tura olmaydi. Shu sababli qadim davrlardan buyon sopol buyumlar aholining kundalik hayotida keng qoʻllanib kelinadi.

Badiyalar, chiroqlar va idishlarni ustalar ora-sira oq, yashil va koʻk ranglar tushirilgan feruza tusdagi gammada ishlangan nafis va ulugʻvor aylanma islmiy bezaklar bilan toʻliq qoplab chiqishgan. Taomilga koʻra, buyumlarning markazida handasaviy naqsh bilan hosil qilingan toʻpbarggul joylangan, hoshiyalari esa shoxlar va chirmashib oʻsayotgan novdalarning murakkab naqshlari bilan toʻliq oʻrab olingan. Bunday naqshlar xon saroylari va masjidlarining naqshinkor koʻk-feruza rangli koshinlarida ham koʻzga tashlanadi. Ustalar koʻpincha bezaklarga pichoqlar, qurollar, taroqlar, baliqlar, qushlar va ilonlar tasvirlarini ham qoʻshishgan.

Xorazm kulolchiligining XX asrda gullab-yashnashi Madir qishlogʻidan boʻlgan kulollar – R. Matchonov va S. Otajonovlarning nomlari bilan bogʻliq. Xonqa qishlogʻida yashab ijod qilgan ustalarning kulolchilik buyumlari Muzeyda B. Voisov hamda uning shogirdlari S. Abdullayev va Y. Abdurahmonovning ajoyib asarlari misolida namoyish etilgan.

* * *

Oʻzbekistonda qadim davrlardan buyon loydan nafaqat idish ishlab chiqarish uchun, balki kichik haykaltaroshlik mahsulotlari, jumladan, har xil shakl va qiyofadagi oʻyinchoq hushtaklar tayyorlash uchun ham foydalanib kelingan. Loydan yasalgan oʻyinchoqlar tarixi, xuddi kulolchilik tarixi kabi, juda qadim zamonlardan boshlanadi. Maʼlumki, loy hush-tak parchalari idish-tovoq parchalari bilan birga neolit davriga oid manzilgohlardan ham topilgan. Qadimgi davrlardan kelayotgan mashhur anʼanaviy eʼtiqodlarga koʻra, odamlar qushlar va hayvonlar shaklidagi boshqa haykalchalarning sehrli kuchga ega ekanligiga is-

honishgan. Ularning e'tiqod bilan bog'liq roli XX asrning boshlarida ham saqlanib qolgan. Bahorgi tengkunlik nishonlanadigan Navro'z bayramida ular hushtak chalish orqali bahor yomg'irini ya'ni mo'l-ko'l hosil olish umidi bilan bog'liq obi rahmatni chaqirishgan. Hush-taklar, shuningdek, bolalarning ham sevimli o'yinchoqlari bo'lgan.

Muzeyning mayda haykalchalar kolleksiyalarida Buxoro viloyati Vobkent tumani Uba qishlog'idan keltirilgan XX asrning ikkinchi yarmiga oid an'anaviy o'yinchoq hushtaklar namoyish etiladi. Loydan yasalgan ommaviy o'yinchoqlar xalq ma'naviy madaniyatining ajralmas qismidir. Uba qishlog'i bir vaqtlar o'yinchoqlar qishlog'i deb nomlangan. Sulola-viy hunarmandlar H. Rahimova va Sh. Obidovalar tomonidan tayyorlangan loydan yasalgan hushtaklar chindan ham milliy yodgorlik buyumlariga aylangan va dunyo miqyosida shuhrat qozongan. Sharifa Obidovaning mahsulotlari ingichka, cho'zilgan bo'lib, xuddi qattiq materialdan ishlanganga o'xshab ketadi. Hamro Rahimovaning o'yinchoqlari esa birmuncha nafis ishlangan bo'lib, ularda tasvirlangan hayvonlarning xususiyatlari jonli tarzda aks ettirilgan. Uning qo'zichoqlar, otlar, sherlar va boshqa ertak hayvonlari ko'rinishidagi o'yinchoq hushtaklari yonida uning shogirdi va ushbu an'ananing yagona davomchisi Kubaro Boboyeva tomonidan tayyorlangan haykalchalarni ham ko'rish mumkin. Hamro Rahimovaning o'g'li Jabbor Hakimov esa xalq o'yinchoqlarining an'anaviy obrazlariga yangicha mavzular majmuini joriy etgan.

Surxondaryolik usta Rasul Zuhurovning hushtaklari kuydirilgan qizg'ish-jigarrang gildan yasalgan va ular nafaqat naqsh chizish, balki nam loyga o'yma naqsh tushirish usuli bilan ham bezatilgan. Muzeyning mayda haykalchalar kolleksiyalarida kitoblik hunarmand A. Sattorovning g'ildiraklarga o'rnatilgan ajoyib o'yinchoqlari ham saqlanadi.

Barcha haykalchalar yorqin, sarg'ish tusli tuproqdan ishlangan bo'lib, pishirib tayyorlangandan so'ng uning rangi butunlay oq rangga kirgan. Shundan so'ng ular tuxum sarig'ida suyultirilgan qizil, ko'k, sariq va yashil bo'yoqlar bilan bo'yalgan. Ba'zi otlar va qushlar shaklidagi haykalchalarning orqa tomonida bo'rtig'i mavjud bo'lib, bu ularning dastlab muqaddas olov yoqilgan moychiroq bo'lganini bildiradi.

Samarqandning eng taniqli kulollaridan biri, O'zbekiston xalq rassomi Umarqul Jo'raqulovning qadimiy hushtaklar uslubida ishlangan murakkab shaklda ishlangan suvdishlari va sopol o'yinchoqlari turkumi tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Jo'raqulovning shogirdi A. Muxtorov o'zbek mayda haykaltaroshlik san'atida yangi janr hisoblangan, o'zbek xalqining hazilkashligi va mehmondo'stligini o'zida aks ettiruvchi kundalik janrlarning sahnalarini yaratdi.



*Usta Abdurahim Muxtorov
ustaxonada. Samarqand,
10.09.1970 yil*

*Usto Abdurahim Mukhtarov in his
workshop. Samarkand.
10.09.1970*

*Усто Абдурахим Мухтаров
в мастерской. Самарканд,
10.09.1970 г.*

CERAMICS AND SMALL PLASTIC ART

In Uzbekistan, the making of ceramic dishes has a long and strong tradition. It is the most widespread type of craft represented by numerous remained materials. Bowls and dishes dated to different historical periods are so diverse and interesting in their shapes and decor that they make it possible to present the main stages in the development of art in our country, in their entirety replacing each other with local and global styles.

By the 19th century, three main schools of pottery formed in the territory of the Uzbek khanates – Fergana, Bukhara-Samarkand and Khorezm. Each school was famous for its world-famous centers. The fate of these schools and centers throughout the 20th century evolved in different ways. Some have survived and increased their fame, some have ceased to exist or are in a state of extinction. The products presented in the exposition of the State Museum of Applied Arts and the History of Handicraft of Uzbekistan allow demonstrating the specifics of the development of pottery during the specified period.

The showcases of the ceramics hall show traditional lyagans and vases, kosa, jugs, and chirogdons (lamps) of the national potters of the republic, as well as various types of tableware made by the potters of the Ceramic Center in different years.

One of the most successful ceramic centers in our country is Rishtan survived throughout the 20th century despite the difficult vicissitudes of time. Rishtan ceramics has its own distinctive features. It is a cobalt and greenish-turquoise glazing contrasting with a white background, in a free, pictorial manner known as kalami (brush painting). Among the traditional local shapes of tableware are flat dishes charkhi or lyagans, cups-kosa of various sizes and shapes, water jugs urdak ("duck"), jugs oftoba and much more. The technique of free pattern made with a brush on a baked shard followed by a secondary baking, the use of ishkori glaze made from the ash of local herbs, rich in lime, a white-blue color, as well as characteristic motifs of the pattern – these are the most striking distinctive features of this center.



*Sulolaviy usta-kulol
Mahkam Obloqulov nabirasi
Muhammadali bilan. Urgut,
1983 yil*

*Hereditary potter usta Mahkam
Ablakulov with his grandson
Mukhammadali. Urgut. 1983*

*Потомственный гончар усто
Махкам Аблакулов со своим
внуком Мухаммадали. Ургут,
1983 г.*



Due to its characteristic color, Rishtan dishes are called "Uzbek gzhel." The local potters started using cobalt in the 14th century when Amir Timur ordered to unravel the secret of the Chinese porcelain with blue and white painting much valued at that time. The Chinese experience was originally developed on the Uzbek soil: they began to produce semi-faience from local clays coated with white glaze with blue and blue painting – the so-called Chinni ceramics, i.e., Chinese. Ceramic products of the Rishtan potters kuzgars, covered with bright blue ishkori glaze, began enjoying extraordinary demand. By the mid-20th century, many of the secrets of blue pottery production had been lost. But the Rishtan masters revived not only the ancient technology of producing ishkori glaze but also brought back ancient shapes and patterns to life.

The exposition of the Museum presents works decorated in the traditional manner with patterns *chorbarg* (four-leafed), *bodomgul* (almond flower) and *anor* (pomegranate fruits) made by the Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan Sh. Yusupov, I. Komilov and A. Nazirov. One of the showcases displays original figured vessels *obdasta urdak* in the shape of a duck (water jugs) peculiar only to Rishtan. In the recent past, young wine called *musallas* was served in such jugs. Today, Rishtan ceramics are actively developing, offering new interpretations of the classical heritage but the collection of the Museum provides an opportunity to see works of the authentic Rishtan style and appreciate its enduring value.



*Sulolaviy usta-kulol
Mahkam Obloqulov.
Urgut, 1980-y.*

*Hereditary potter usto
Mahkam Ablakulov.
Urgut. 1980*

*Потомственный
гончар усто Махкам
Аблакулов.
Ургут, 1980 г.*

Another famous pottery center of the Fergana Valley is Gurumsaray located in the Pap district of the Namangan region. Favorite types of ceramics of Gurumsaray potters are large lyagans, deep bowls with unfolded sides and various small dishes for household purposes: kaymakdon, persimmons, milk jugs, etc. The color of the products is specific smoky bluish-green and blue. For the ornamental design, they traditionally use the quatrefoil chorbarg, the cruciform pattern butasimon bezak – a variation of the “cock’s comb” motif, the polygonal star-shaped figures “kup burchagli yulduzsimon bezaklar”, etc. However, the main distinguishing feature of the Gurumsarai decor is the active use of inter-flowing white and turquoise abstract patterns giving the products archaism and some monumentality. In the second half of the 20th century, such famous masters as Kh. Satimov, M. Turapov and others lived and worked in Gurumsaray. Today, the only representative of this ceramics center is V. Buvaev whose works are also on display.

Throughout the 20th century, the ceramics of Tashkent passed an interesting way of development. Usto Mirali is considered the founder of the Tashkent pottery tradition. The successor of the dynasty was his sixth-generation descendant Turab Miraliev, whose creativity flourished in the 1920s–1930s, and his sons. Turab Miraliev

made an important contribution to the development of Tashkent ceramics, enriching its decor with a combination of two traditional techniques of Uzbek ceramics – painting and engraving, and thereby developing a unique style of *chizma-kalami*. The potter conducted his experiments on the restoration of lost technological and artistic techniques on the basis of the Tashkent Educational and Production Plant of the Art Industry.

A follower of Turab Miraliev was one of the most interesting ceramic masters in the fifth generation, Usto Mukhitdin Rakhimov, as well as his son, the Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan Akbar Rakhimov. In making ceramics, representatives of this family followed the path of restoring the shapes and artistic techniques that existed in the territory of Uzbekistan in various historical epochs. Mukhitdin Rakhimov set himself the goal of studying archaeological material, restoring ancient artistic techniques and ornamental motifs, as well as the recipe of ancient dyes. Basing on these studies, he recreated the antique ceramics of the period of the Kushan kingdom, the ceramics of medieval Afrasiab, Chach-Tashkent, and many other regions and periods. The results of these searches are presented in the exposition of the Museum.

Old techniques of painting were used in their work by other Tashkent ceramists such as Ch. Sadykov, Sh. Giyasov and A. Raufov.

The Bukhara-Samarkand school of ceramics is presented in the exposition by the products of a number of centers. One of the most famous and sustainably developed centers is Gijduvan located forty kilometers from Bukhara. When making patterns, Gijduvan potters always preferred engraving in combination with free painting. Using this technique, they combine floral and geometric patterns. There are also stylized images of a peacock, its tail, or a separate feather. The color of Gijduvan ceramics is a deep range of dark brown tones with dark green or transparent light green, yellow, and dark blue shades.

In the Museum collection, a very special is the products of the potters of this center, Usman Umarov and his student, hereditary master in the fifth generation, Ibadullo Narzullaev. I. Narzullaev (1927–1987) is one of the most famous ceramists in Uzbekistan. He managed not only to preserve the priceless cultural heritage but also to pass it on to his sons, Alisher and Abdullo, as well as his daughter Nodira, who, already in the sixth generation, continue to develop the ancient traditions of the center. In 1997, the brothers founded the Gijduvan Glazed Ceramics Center. The Narzullaevs are permanent participants of international and republican exhibitions of applied arts.

Another center of the Bukhara-Samarkand school with a less successful fate is Shakhrisabz. Its ceramics is notable for a thin, ringing shard, colored in all shades of fiery red, ocher and black. A large laconic pattern on the Shakhrisabz dishes is painted in a free pictorial rhythm. Various kinds of leaves, patterns “bull’s eye” and circles with dots (an apple) which “tup etdi” – “ripe and fell from the tree with a

knock” are traditional. The formation of the original style of Shakhrisabz ceramics is associated with the name of the famous hereditary master A. Khazratkulov. The exposition presents his works, as well as the works of his student, usto A. Muzaffarov who also strove for the careful preservation of ancient recipes for glaze and magical secrets of patterns. Taken into account the crisis of this center, the Museum small collection of Shakhrisabz ceramics is gaining special importance.

During the 20th century, the ceramics of Samarkand went through a peculiar way of development. It is notable for the use of lead glaze, brush painting kalami, large patterns, mainly of a floral character. Only occasionally, the technique of scratching a pattern – chisma is used for the ornamentation of products. Popular shapes are dishes and bowls.

In the late 19th century, the production of handmade ceramics in Samarkand practically fell into decay as a result of the massive import of factory-made tableware from Russia. Much of the heritage began to be forgotten, but there were still potters in the city who mastered the pottery craft. And it is no coincidence that in the second half of the 20th century, local ceramists draw inspiration not from the experience of their grandfathers but from much more distant eras, the heritage of which began to be revealed as a result of archaeological excavations. One of these sources of inspiration was the medieval Afrasiab – the ancient site of Samarkand. Basing on the rarities disclosed there, they create original terracotta vessels, reviving the interrupted connection of times. In these products, painted with brown, yellow and green glaze, we recognize the ancient symbols of earth, water, sky, sun, and stars.

In the Museum, it is possible see the works of the outstanding Samarkand master, People’s Artist of Uzbekistan usto Umar Jurakulov, his students and followers – Sh. Azimov, Kh. Baturov and M. Nodirov, created in the traditions of the Afrasiab small plastic arts and decorated with added details. These are figurines of fabulous animals, dragons, birds, and camels.

A separate stand in the Museum is reserved for the ceramics of the Khorezm school. They are notable for a blue-white range and unique shapes that are not found anywhere else. Such are the dishes on a stand – chanak, deep bowls – badiya with high vertical sides and rather high bases, vessels for churning butter – guppi, jugs for ablution – ibrik, oil lamps – chirog, and, of course, khum of various sizes – vessels for storing water, grain, flour, etc. In hot climates, nothing keeps water and other products cool and fresh better than clay khum. Therefore, earthenware has long been widely used in the everyday life of the population.

Badiyas, lamps and vessels of the potter are completely covered with the exquisite and noble pattern of aylanma islimi in turquoise colors interspersed with white, green and blue. As a rule, there was a rosette formed by a geometric pattern in the center of the product and the edges with a complex interweaving of stems and spiral shoots. Such patterns were spied on from the patterned blue-turquoise tiles of the khan’s



*Usta Haydar Usmonov – va uning
o'g'illari – Muxtor, Ergash, Jo'ra.
Rishton, 22.03.1965-y.*

*Usto Khaidar Usmonov and his sons
Mukhtar, Ergash, Jura.
Rishtan. 22.03.1965*

*Усто Хайдар Усмонов и его сыновья
– Мухтар, Эргаш, Джура. Риштан,
22.03.1965 г.*

palaces and mosques. Potters often included images of knives, guns, scallops, fish, birds, and snakes in the ornamentation.

The flourishing of Khorezm ceramics of the 20th century is associated with the names of potters from the village of Madyr – R. Matchanov and S. Atajanov. The ceramics of masters from the village of Khanka are presented in the Museum by the wonderful works of B. Vaisov and his students S. Abdullaev and Ya. Abdurakhmanov.

Clay in Uzbekistan has long been used not only for the making of dishes but also for small plastic art – all sorts of modeled toys-whistles named khushtak. The

history of clay toys, like those of pottery, dates back to time immemorial. It is known that fragments of clay whistles were found at sites of the Neolithic, next to shards of crockery. Since ancient times, according to popular beliefs, they believe that figurines in the shape of birds and various kinds of animals have magical powers. Their ritual role remained even in the early 20th century – during the celebration of the spring equinox – Navruz – using them, they whistled spring rain – “water of mercy”, *obi rahmat*, with which they pinned hopes for a rich harvest. Whistles were also children’s favorite toys.

The Museum collection of small plastic art presents traditional toys-whistles of the second half of the 20th century from the village of Uba, Vabkent district, the Bukhar region. The folk clay toy is an integral element of the spiritual culture of the people. The village of Uba was once called the village of toys. The clay modeled whistles made by the hereditary craftswomen Khamro Rakhimova and Sh. Obidova have become truly national souvenirs and gained worldwide fame. Sharifa Obidova’s products are slender, elongated, as if carved out of solid material. Rakhimova’s toys are more plastic, they vividly have the features of the animals depicted. Next to her toys-whistles in the shape of lambs, horses, lions and fairy-tale animals, it is possible to see figures made by her apprentice and the only guardian of this tradition, Kubaro Babaeva. The son of Rakhimova, Jabbar Khakimov, introduced a new theme in the traditional images of folk toys.

The whistles of the Surkhandarya master Rasul Zukhurov are made of terracotta and decorated not only with painting, but also with a notch on wet clay. The collection of small plastic art of the Museum also includes amazing toys on wheels by the craftswoman from Kitab A. Sattarova.

All figurines are sculpted from light loess-like clay which after baking becomes completely white, and painted with red, blue, yellow and green paints, diluted on egg yolk. Some horse and bird figurines have a ledge on their backs – originally it was an oil lamp, where a sacred fire was kindled.

Figured jugs and a series of national ceramic toys in the style of the old whistles of Umarkul Jurakulov, one of the most famous ceramists of Samarkand, People’s Artist of Uzbekistan, are of great interest. U. Jurakulov’s apprentice A. Mukhtarov created a new genre of Uzbek small plastic art – everyday genre scenes reflecting the humor and hospitality of the Uzbek people.



*Usta Alisher Narzullayev ish ustida.
Buxoro, 1989-y.*

*Usto Alisher Narzullaev at work.
Bukhara. 1989*

*Усто Алишер Нарзуллаев за
работой. Бухара, 1989 г.*

КЕРАМИКА И МЕЛКАЯ ПЛАСТИКА

В Узбекистане изготовление керамической посуды имеет давние и прочные традиции. Это самый широко распространенный вид ремесла, представленный многочисленным сохранившимся материалом. Чаши и блюда, относящиеся к разным историческим эпохам, настолько разнообразны и интересны по своим формам и декору, что дают возможность представить основные этапы в развитии искусства нашей страны во всей полноте сменяющих друг друга локальных и глобальных стилей.

К XIX веку на территории узбекских ханств сложились три основные школы гончарства – ферганская, бухаро-самаркандская и хорезмская. Каждая школа славилась своими знаменитыми на весь мир центрами. Их судьба на протяжении XX века складывалась по-разному. Некоторые сохранились и преумножили свою славу, другие прекратили свое существование или находятся в состоянии угасания. Продукция, представленная в экспозиции Государственного музея прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана, позволяет продемонстрировать специфику развития гончарства в течение указанного периода.

В витринах зала керамики представлены традиционные *ляганы* и *вазы*, коса, кувшины, *чирогдоны* (светильники) народных мастеров республики, а также посуда, созданные гончарами Керамического центра в разные годы.

К числу самых успешных керамических центров нашей страны относится Риштан, который сохранялся на протяжении XX века, несмотря на сложные перипетии времени. Риштанская керамика имеет свои ярко выраженные отличительные черты. Это кобальтовая и зеленовато-бирюзовая полива, контрастирующая с белым фоном, свободная живописная манера нанесения узора, известная как *калами* (ропись кистью).

К числу традиционных местных форм посуды относятся плоские блюда *чархи*, или ляганы, чашки-коса разных размеров и форм, водолеи *урдак* («утка»), кувшины *офтоба* и многое другое. Техника свободного нанесения узора кистью по обожженному черепку с последующим вторичным обжигом, использование ишкоровой поливы, получаемой из золы местных трав, богатой известью, бело-голубой





*Usta Usmon Umarov ish
ustida.*

Buxoro, 18.07.1967-y.

*Usto Usman Umarov at
work.*

Bukhara. 18.07.1967

*Усто Усман Умаров за
работой.*

Бухара, 18.07.1967 г.

колорит, а также характерные мотивы орнамента – таковы самые яркие отличительные черты этого центра.

Благодаря характерному колориту посуду Риштана называют «узбекской гжелью». Пристрастие к кобальту у местных гончаров возникло еще в конце XIV века, когда Амир Темур велел разгадать секрет столь ценимого в те времена китайского фарфора с бело-голубой росписью. Китайский опыт получил оригинальное развитие на узбекской земле: из местных глин стали производить полуфаянс, покрытый белой глазурью с синей и голубой росписью, – так называемую керамику чинни, то есть китайскую. Керамические изделия риштанских мастеров-кузгаров, покрытые яркой голубой ишкоровой глазурью, стали пользоваться необычайным спросом. К середине XX века многие секреты производства голубой керамики были утеряны. Но риштанские мастера возродили не только древнюю технологию получения ишкоровой глазури, но и вернули к жизни старинные формы и орнаменты.

В экспозиции Музея представлены произведения, орнаментированные в традиционной манере узорами *чорбарг* (четырёхлистник), *бодомгуль* (цветок миндаля), *анор*

(плоды граната), созданные академиком Академии художеств Узбекистана Ш. Юсуповым, И. Комиловым, А. Назировым. В одной из витрин выставлены оригинальные фигурные сосуды *обдаста урдак* в виде утки (водолей), свойственные только Риштану. В недавнем прошлом в таких водолеях подавали молодое вино – *мусаллас*. В наши дни керамика Риштана активно развивается, предлагает новые прочтения классического наследия, однако коллекция нашего Музея дает возможность увидеть произведения подлинного риштанского стиля и оценить его непреходящую ценность.

Еще один известный гончарный центр Ферганской долины – Гурумсарай, расположенный в

Папском районе Наманганской области. Излюбленные виды керамических изделий гурумсарайских мастеров – большие ляганы, глубокие чаши с развернутыми бортами, мелкая посуда хозяйственно-бытового назначения: каймакдон, хурма, кувшинчики для молока и др. Колориту изделий присущи специфичные дымчатый голубовато-зеленый и синий цвета. В орнаментальном оформлении традиционно используется четырехлистник *чорбарг*, крестообразный узор *бутасимон безак* – вариация мотива «петушиный гребень», многоугольные звездчатые фигуры «*кўп бурчагли юлдузсимон безаклар*» и др. Но главная отличительная черта гурумсарайского декора – активное использование взаимоперетекающих бело-бирюзовых абстрактных узоров, придающих изделиям архаичность и некоторую монументальность. Во второй половине XX века в Гурумсарае жили и творили такие известные мастера, как Х. Сатимов, М. Турапов и другие. В наши дни единственным представителем этого центра керамики является В. Буваев, чьи работы также представлены в экспозиции.

На протяжении XX века интересный путь развития прошла керамика Ташкента. Основоположником ташкентской гончарной традиции считают усто Мирали. Продолжателем династии стал его потомок в шестом поколении Тураб Миралиев, расцвет творчества которого пришелся на 1920–1930-е гг., и его сыновья. Тураб Миралиев внес



Usta Ibodullo Narzullaev o'g'li Alisherga sopolga naqsh solishni o'rgatmoqda. Buxoro, 18.07.1967-y.

Usta Ibodullo Narzullaev teaches painting to his son Alisher. Bukhara. 18.07.1967

Усто Ибодулло Нарзуллаев обучает росписи своего сына Алишера. Бухара, 18.07.1967 г.

важный вклад в развитие ташкентской керамики, обогатив ее декор сочетанием двух традиционных приемов узбекской керамики – росписи и гравировки и разработав тем самым уникальный стиль *чизма-калами*. Свои опыты по восстановлению утерянных технологических и художественных приемов гончар проводил на базе Ташкентского учебно-производственного комбината художественной промышленности.

Последователем Тураба Миралиева был один из интереснейших мастеров-керамистов в пятом поколении усто Мухитдин Рахимов, а также его сын, академик Академии художеств Узбекистана Акбар Рахимов. В создании керамических изделий представители этой семьи пошли по пути восстановления форм и художественных приемов, бытовавших на территории Узбекистана в разные исторические эпохи. Мухитдин Рахимов поставил перед собой цель изучить археологический материал, восстановить древние художественные приемы и орнаментальные мотивы, рецептуру старинных красителей. На основе этих штудий он воссоздал античную керамику эпохи Кушанского царства, керамику средневекового Афрасиаба, Чача-Ташкента, многих других регионов и периодов. Результаты этих поисков представлены в экспозиции Музея.

Старинные приемы росписи использовали в своем творчестве и другие ташкентские мастера-керамисты: Ч. Садыков, Ш. Гиясов, А. Рауфов.

Бухаро-самаркандская школа керамики представлена в экспозиции продукцией ряда центров. Один из самых знаменитых, отличающихся устойчивым развитием, – Гиждуван, расположенный в сорока километрах от Бухары. При создании узоров гиждуванские мастера всегда предпочитали гравировку в сочетании со свободной росписью. Пользуясь этой техникой, они комбинируют растительно-цветочные и геометрические узоры. Встречаются также стилизованные изображения павлина, его хвоста, или отдельного пера. Колорит гиждуванской керамики отличает глубокая гамма темно-коричневых тонов с дополнением темно-зеленых или прозрачных светло-зеленых, желтых, темно-синих оттенков.

В музейной коллекции особое место занимают изделия мастеров этого центра Усмана Умарова и его ученика, потомственного мастера в пятом поколении Ибадулло Нарзуллаева. И. Нарзуллаев (1927–1987 гг.) – один из самых известных керамистов Узбекистана. Ему удалось не только сохранить бесценное культурное наследие, но и передать его своим сыновьям, Алишеру и Абдулло, а также дочери Нодире, которые уже в шестом поколении продолжают развивать древние традиции центра. В 1997 году братья основали Центр поливной керамики Гиждувана. Нарзуллаевы – постоянные участники международных и республиканских выставок прикладного искусства.

Еще один центр бухаро-самаркандской школы с менее успешной судьбой – Шахрисабз. Для него характерна керамика с тонким, звенящим черепком, расцвеченная всеми оттенками огненно-красного, охристого и черного цветов. Крупный лаконичный узор на шахрисабзской посуде нанесен в свободном живописном ритме. Традиционными являются разного рода листья, узоры «бычий глаз» и круги с точками, понимаемые как

яблоко, которое «*туп этди*» – «созревшее и упавшее со стуком с дерева». Создание оригинального стиля шахрисабзской керамики связано с именем знаменитого потомственного мастера А. Хазраткулова. В экспозиции представлены его работы, а также работы его ученика усто А. Музаффарова, который также стремился к бережному сохранению старинных рецептов глазури и магических тайн узоров. Учитывая кризис данного центра, наша небольшая коллекция шахрисабзской керамики обретает особую важность.

На протяжении XX века своеобразный путь развития прошла керамика Самарканда. Ее отличает использование свинцовой глазури, кистевая роспись *калами*, крупные узоры, главным образом растительного характера. Лишь изредка для орнаментации изделий применяется прием процарапывания рисунка – *чизма*. К числу популярных здесь форм относятся блюда и чаши.

В конце XIX века производство керамики ручной работы в Самарканде практически пришло в упадок в результате массового ввоза фабричной посуды из России. Многие из наследия стало забываться, но в городе все еще были мастера, владевшие гончарным ремеслом. И не случайно во второй половине XX века местные керамисты черпают вдохновение не в опыте своих дедов, а в гораздо более отдаленных эпохах, наследие которых стало приоткрываться в результате археологических раскопок. Одним из таких источников вдохновения стал для них средневековый Афрасиаб – древнее городище Самарканда. На основе обнаруженных здесь раритетов они создают оригинальные сосуды из терракоты, возрождая прерванную связь времен. В этих изделиях, расписанных коричневой, желтой и зеленой глазурью, мы узнаем древние символы земли, воды, неба, солнца, звезд.

В Музее можно увидеть произведения выдающегося самаркандского мастера, народного художника Узбекистана усто Умара Джуракулова, его учеников и последователей Ш. Азимова, Х. Батунова, М. Носирова, созданные в традициях мелкой пластики Афрасиаба и украшенные лепными деталями. Это фигурки фантастических животных, драконов, птиц, верблюдов.



*Sulolaviy usta-kulol
Mahkam Obloqulov o'z
ustaxonasida. Urgut,
1985-y.*

*Hereditary potter usto
Mahkam Ablakulov in his
workshop. Urgut. 1985*

*Потомственный
гончар усто Махкам
Аблакулов
в своей мастерской.
Ургут, 1985 г.*



*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi usta Raimberdi
Matchonov.*

*Xorazm, Xonqa tumani, Madir
qishlog'i. 1971 yil*

*Honoured Worker of Culture
of Uzbekistan usta Raimberdi
Matchanov.*

*Madyr village, Khanka district,
Khorezm. 1971*

*Заслуженный работник
культуры Узбекистана усто
Раимберды Матчанов.*

*Село Мадыр Ханкинского района,
Хорезм. 1971 г.*

